

**O`zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi**

**Navoiy davlat pedagogika instituti**

**Qo`lyozma huquqida**

***Ismoilova Bonu Ibragimovna***

**Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining rivojlanish tarixi va istiqboli  
(Navoiy viloyati misolida)**

Tarix fakulteti \_\_\_\_\_

tarix bo`yicha magistr darajasini olish uchun

***MAGISTRLIK DISSERTASIYASI***

Ilmiy rahbar: tarix fanlari nomzodi, dosent, Tolibov R. N.

***Navoiy 2010 yil***

**Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining rivojlanish tarixi va istiqboli**  
(Navoiy viloyati misolida)

<b>Kirish</b> .....	2-9
<b>I – Bob. Istiqlol odimlari: ta'lim va istiqbol.</b>	
1.1 O`tish davrida maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining moddiy texnika bazasini mustahkamlash.....	10-18
1.2. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida sport to`g`araklarining jonlanishi . .....	19- 26
1.3 Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida musiqa to`g`araklarining faoliyati. ....	27-31
<b>II –Bob. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining taraqqiyoti, ta'lim - tarbiya samaradorligining takomillashuvi va istiqboli</b>	
2. 1. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida mashg`ulotlarni o`tishini to`g`ari tashkillashtirish, darslik va o`quv adabiyotlari bilan ta'minlash ta'lim samaradorligini oshirish omili.....	32-37
2. 2. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini pedagogik kadrlar bilan taminlanishini samarali tizimini yaratilishi.....	38-47
2. 3. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida manaviy - axloqiy tarbiya va marifiy ishlarning samarali shakllari.....	48-54
<b>III. Xulosa</b> .....	55-58
<b>IV. Foydalanilgan adabiyotlar</b> .....	59-61

## Kirish

O'zbekiston mustaqillikka erishgach barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim yo'nalishi jumladan, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida ham tub islohatlar amalga oshirilmoqda. Mazkur sohadagi islohatlarning asosiy maqsadi - uzluksiz ta'lim mazmunini yangilash, uni jahon ta'lim standartlari darajasiga ko'tarish, ta'lim tizimiga pedagogik texnologiyalarni tadbiq etishdan iborat. Bu yo'lda amalga oshirilayotgan ishlar O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda «Davlat ta'lim standartlari» talablariga muvofiq barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalashga qaratilgan ijtimoiy harakat muvaffaqiyatini taminlashga xizmat qilmoqda.

Istiqlolning ilk qadamlaridanoq, asriy qadriyatlarimizni, ma'naviyatimizni tiklash va yuksaltirish yo'lida milliy ta'lim - tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zamini yanada mustahkamlash va zamon talablari bilan uyg'unlashtirilgan holda jahon andozalari darajasiga chiqarish asosiy maqsad qilib olingan. Zero, ilm - fan madaniyat va marifat har qanday mamlakatning taraqqiyotini taminlaydi. Yurtboshimiz tadbirlarida, "ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi"<sup>1</sup>

Darhaqiqat, ta'lim kelajagini oldindan ko'rsatib beradi. Eng muhimi ilm - marifat insonni komillik sari yuksaltiradi, "manaviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baqquvvat, iymon etiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir"<sup>2</sup>.

Malumki, tarbiyaning inson hayotidagi o'rni azaldan o'zbek xalqi qadriyatlari sifatida ulug'lanib kelingan. "Ta'lim - tarbiyaga alohida ahamiyat berish - bu kelajak haqida qayg'urish demakdir. Shuni unutmaslik kerakki, kelajagimiz poydevori bilim bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq. Endilikda har qaysi davlat, har qaysi millat, birinchi navbatda. o'zining yuksak madaniyati va manaviyati bilan kuchlidir. «Kuch – bilim va tafakkurda»<sup>1</sup> deb takidlaydilar, Prezidentimiz I. A. Karimov.

Shu sababli ta'lim - tarbiya tizimini hozirgi zamon talabi darajasiga ko'tarish barkamol shaxsning tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Respublikaning kelajagi ilm - fan, ta'lim tarbiya taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir. Shu bois mustaqillikning dastlabki

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak manaviyat – yengilmas kuch. T. «Manaviyat», 2008, 62-bet

<sup>2</sup> Shu yerda: 19-bet

<sup>1</sup> "Xalq talimi" Jurnal. 2007 yil, 1-son, 131 – bet (Maktabdan tashqari talim muassasalarining bugungi ahvoli va istiqbollari)

yillaridanoq ta'lim-tarbiya, ilm - fan, kasb-hunar o'rgatish masalalari davlatimiz siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biriga aylandi. 1997 yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida jamiyatimizda ta'limni tubdan isloh qilish tadbirlari amalga oshirilmoqda. Asosiy maqsadimiz ta'limning yangi modelini ishga tushirib, mamlakatimizdagi mavjud ijtimoiy - siyosiy iqlimni butunlay o'zgartirish, mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirish, jamiyatimizning imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, dunyo miqyosida munosib o'rinni egallashdir.

Shu qisqa bosib o'tilgan yillar mobaynida O'zbekistonda ta'lim tizimi islohati jumladan, umumta'lim maktablari va maktabdan tashqari ta'lim tizimida ham o'zining ijobiy o'zgarishlarini namoyon etmoqda. Jahon mamlakatlari tajribalarini keng ko'lamda o'rganish, yangiliklar va yutuqlarni ta'lim tizimiga joriy etish, bularning hammasi maktabdan tashqari muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirishga ko'maklashmoqda. Ayniqsa, yurtimizda juda ko'plab ta'lim maskanlari bunyod etildi. Ta'lim - tarbiya jarayonida sifat o'zgarishlari yuz bermoqda. Shu sababli ta'lim tizimi, jumladan maktabdan tashqari ta'lim muassasalari faoliyati tarixini o'rganish ilmiy tadqiqot qilish, yutuq va kamchiliklari haqida tegishli xulosalar chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat, bugunda shu soha tarixi va uning istiqboli keng o'rganilmoqda, to'plangan tajribalar ommalashtirilmoqda.

Hozirgi kunda o'quvchi - yoshlarga turli kasb sirlarini o'rgatish, ularni hayotga tayyorlash va qiziqishlariga qarab maktabda olgan bilimlarini rivojlantirish, amaliyotga mustahkamlash maqsadida bugungi kunda respublikamiz miqyosida jami 570 ta maktabdan tashqari ta'lim muassasalari faoliyat yuritmoqda. Shu sababli mazkur muassasalar faoliyatini tadqiqot qilish kelajagimiz bo'lgan yoshlarimizni to'g'ri yo'lga boshlashimizga zamin yaratgan bo'lar edi. Prezidentimiz, I. A Karimov takidlanganidek, «agar biz haqiqatdan ham qashshoqlik va qoloqlik kishanlaridan qutulmoqchi bo'lsak, yoshlarni tayyorlash bilan jiddiy shug'ullanishimiz, zamonaviy kasblarni egallashda ularga yordam berishimiz kerak»<sup>1</sup>.

Darhaqiqat, yangi demokratik jamiyat, yangi ijtimoiy – tarixiy tizimni insonlar ma'naviyati va axloqni yangilash, milliy qadriyatlarni tiklash orqaligina barpo etish mumkin. Bu jamiyatni albatta hozirda maktabda ta'lim olayotgan yoshlar barpo etadi.

Bugunda, ta'lim tizimida tahsil olayotgan yoshlarning yangi ijtimoiy munosibatlarni mohiyatini anglab etayotganligiga amin bo'lmoqdamiz. Binobarin, ta'lim sohasidagi ozgarishlar yoshlarimizning ongi – shururiga ta'sir ko'rsatayotgani ularni faol, madaniyatli,

<sup>1</sup> Karimov I. A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T. "Sharq". 1997. 42 – bet.

vatanparvar, bilimli qilib tarbiyalayotgani qalban his etmoqdamiz. Shu o`rinda ta`lim sohasidagi bu ozgarishlarni tadqiqot qilish, yutyq va kamchiliklarini o`rganish, xulosalar chiqarish muhimdir. Shuningdek, mazkur masala to`g`risida o`z fikr mulohazalarni aytish vaqti keldi deb, o`ylaymiz. Fikrimizcha, O`zbekistonda ta`lim tizimi, maktabdan tashqari ta`lim muassasalari tizimi tarixini o`rganish, tegishli xulosalar chiqarish tarixchilarimiz tomonidan tadqiq etilishi zarur bo`lgan dolzarb muammolar sirasiga kiradi.

**Mavzuning o`rganilish darajasi.** O`zbekistonda ta`lim tizimi, jumladan, maktabdan tashqari ta`lim muassasalari tarixini zarur yo`nalishlari bo`yicha izohlab, ilmiy jihatdan asoslab berishga harakat qilgan tadqiqotlar yetarli darajada. Mazkur ilmiy ishlarda respublikamizda ta`lim tizimi shuningdek, maktabdan tashqari ta`lim tizimining tarixiy taraqqiyoti va istiqbolini tadqiqot qilishga qaratilgan. Bularga: J. Yo`ldoshev Q. Ergashev, A.Choriyev, A. Sadiyev, YU. K. Babanskiy va boshqa olimlarning qator ilmiy ishlarini ko`rsatish mumkin. Mazkur asarlarda O`zbekistonda ta`lim tizimi, ayniqsa, umumta`lim va maktabdan tashqari ta`lim tizimining rivojlanish tarixi yoritilishiga harakat qilingan<sup>1</sup>. Lekin maktabdan tashqari ta`lim muassasalarining faoliyatini, ayniqsa, region nuqtai nazarda qaraganda Navoiy viloyati maktabdan tashqari ta`lim muassasalarining tarixiy rivojlanish taraqqiyoti haqida mustaqil tadqiqotlar yetarli darajada emas. Bizning tadqiqotimiz aynan bu soha yo`nalishini o`rganish va tahlil qilishga qaratilgan. Shu sababli ta`lim tizimida, jumladan Navoiy viloyati maktabdan tashqari ta`lim muassasalarida islohatlarning borishi, moliyaviy resurslarni jalb etish xususiyatlari, ayniqsa, muassasalarining buyudjetdan tashqari mablag` topish faoliyati, jismoniy tarbiya va sport hamda musiqa to`garaklari faoliyati, pedagogik kadrlar salohiyatini oshirish va ta`lim - tarbiya jarayoni bilan bog`liq muammolarni chuqurroq o`rganish zarurati dissertasiya mavzusini tanlashga sabab bo`ldi.

**Tadqiqotning maqsad va vazifalari.** Mustaqillikka erishgan ilk kunlarimizdan boshlab O`zbekistonda ta`lim tizimi, maktabdan tashqari ta`lim muassasalarining rivojlanishi ularning faoliyati tarixini tadqiqotlar asosida tahlil qilish, dissertasiya ishining asosiy maqsadini tashkil etadi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun tadqiqot davomida hal qilishi lozim bo`lgan quyidagi vazifalar belgilandi:

---

<sup>1</sup> Ergashev F.. O`zbekiston xalq talimining rivojlanish tarixi.. T. "O`qituvchi" 1998. Чориев А. Проблемы народного образования педагогических кадров Узбекистана. Т., Fan, 1997. Садиев А. Преподавания истории народов Узбекистана. Т., "Укитувчи".1994., Yo`ldoshev J. O`zbekiston Respublikasi ta'lim taraqqiyoti yo`lida. T. «O`qituvchi». 1993. Бабанский Ю. Методы обучения в современных общеобразовательных школах Т., "O`qituvchi", 1990. Saidaxmedov N. S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. T., 2003 Azarov Y.P. Bolalarni sevish sanati. T. "O`qituvchi", 1992.

- ta'lim tizimini jumladan, maktabdan tashqari muassasalarini moliyaviy taminlash bo'yicha respublikamiz hamda Navoiy viloyatida olib borilayotgan moliya - byudjet siyosatining mazmuni va maqsadi hamda bajarilishi jarayonini yoritib berish;
- maktabdan tashqari muassasalarida sport va musiqa to'garaklarining Dastur asosida olib borayotgan amaliy faoliyatini o'rganish;
- Navoiy viloyatida, maktabdan tashqari muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagogik kadrlar va ular salohiyatining oshib borishi hamda qayta tayorlash jarayonini yoritish ;
- Navoiy viloyati maktabdan tashqari muassasalarida ta'lim - tarbiya jarayonida va komil inson tarbiyasi sohasida ilg'or tajribalarini o'rganish hamda respublikamiz amaliyotiga tadbiq etishning xususiyatlarini ko'rsatib berish;

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Maktabdan tashqari muassasalar, jumladan, Navoiy viloyati maktabdan tashqari muassasalarinig tarixini tadqiq va tasnif etishda mazkur soha yo'nalishlari bo'yicha yozilgan asarlar va manbalarda muammolarning yechilishi, tajribalari, tadqiq etildi. Arxiv hujjatlari, adabiyotlarning nazariy, uslubiy asoslari tahlil etilib, muammolarning yoritilishi bilan bog'liq ilmiy mohiyati aniqlanib, tarixiy haqiqatni tiklashga harakat qilindi. Mazkur yo'nalishda olib borgan tadqiqotimiz natijasida ushbu sohadaning yutuqlari va mavjud kamchiliklari o'rganildi. Shuningdek, mazkur asarlar manbalar va hujjatlarida berilgan malumotlar shu davrdagi voqea - xodisalarga oid ijtimoiy siyosiy qarashlar, tarixiy haqiqatlarni qay darajada aks ettirganini aniqlash imkoniyatini berdi. Muammolarning xolisona, dialektik asosda o'rganilishi dissertasiyada yangi nazariy xulosalarning chiqarilishini taminladi.

#### **Tadqiqotning metodi va ilmiy-nazariy asoslari.**

Dissertasiya ishini yozishda dialektik metodga tayandik. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning tariximizni bugungi kun nuqtai nazardan o'rganish, yaratish orqali tarixiy xotirani tiklash, milliy madaniyatni rivojlantirish, ananaviy qadriyatlar tizimini tadqiq va targ'ib etish borasidagi konseptual nazariy mulohazalari dissertasiya ishining metodologik asosini tashkil etadi.

Maktabdan tashqari muassasalar, jumladan, Navoiy viloyati, maktabdan tashqari muassasalarinig tarixini tadqiq va tasnif etishda xolisilik va tarixiy - qiyosiy metoddan foydalandik. Mavzuga oid faktik materiallar va arxiv hujjtlarni tahlil etishda qiyosiy usuldan foydalandik. Shuningdek, maktabdan tashqari muassasalari tarixining adabiyot va

manbalarida yoritilishini tadqiq etish va tasniflashda Q. Ergashev, D. Obidov, F. Ergashev<sup>1</sup> kabi tarixchi olimlarning asarlari, Navoiyviloyat Xalq ta'limi boshqarmasi, Navoiy shahar Xalq ta'limi bo'limi joriy arxivi hujjatlarida bayon qilingan nazariy xulosalarga tayandik.

**Tadqiqotning ilmiy - nazariy va amaliy ahamiyati.** Maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, jumladan, Navoiy viloyati, maktabdan tashqari muassasalarining tarixini tadqiq va tasnif etish, ta'lim sohasida tarixiy haqiqatni oydinlashtirishga, tarixiy voqealarning sabab va maqsadlari turlicha baholangan yoki ziddiyatli qarashlarning mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Mazkur ilmiy ishning nazariy xulosalari va natijalaridan oliy o'quv yurtlarida O'zbekiston tarixi fani bo'yicha maxsus kurslar o'tishda, darslik, o'quv qo'llanmalari va dasturlar tuzishda foydalanish mumkinligi, dissertasiyaning amaliy ahamiyatini belgilaydi.

**Tadqiqotning manbalari.** Dissertasiya ishini yozishda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix instituti tomonidan nashr etilgan ilmiy asarlar, maqolalar, ashyoviy materiallar shuningdek, Viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi Navoiy shahar Xalq ta'limi boshqarmasi joriy arxivi hujjatlari, magistrant tomonidan o'rganilgan asarlar va matbuot materiallari natijalari asos qilib olindi. Shuningdek, mustaqillik davrida mazkur mavzuda uyushtirilgan davra

suhbatlari materiallari, chop etilgan ilmiy maqolalar, dissertasiyalar va avtoreferatlardan ham keng foydalanildi.

**Tadqiqotning jamoatchilik etiboridan o'tishi.** Mazkur dissertasiya Navoiy Davlat pedagogika institutining «Umumiy tarix» kafedrasida bajarildi. Kafedra yig'ilishida muhokama qilinib himoyaga tavsiya etildi. Muhokama jarayonida kafedra a'zolarining bildirgan taklif va mulohazalari o'rganildi, dissertatsiyaga tuzatishlar kiritildi. Ilmiy ishning asosiy mazmuni Navoiy davlat pedagogika instituti professor - o'qituvchilari va talabalarining ananaviy ilmiy konferensiyalarida qilgan maruzalarida o'z ifodasini topgan. Tadqiqot yuzasidan 2 ta ilmiy maqola va axborotlar nashr qilingan.

**Tadqiqotning tuzilishi.** Dissertasiya kirish, ikki asosiy bob, xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Bizning fikrimizcha, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, jumladan, Navoiy viloyati, maktabdan tashqari muassasalarinig tarixini o'rganish ko'p qirrali va bu mavzu hali

---

<sup>1</sup> Ergashev. Q. O'zbekiston xalq ta'limining rivojlanish tarixi. T. "O'qituvchi" 1998. Ergashev F. Obidov D. Milliy ta'lim tarixidan T. "Akademiya", 1998. Ergashev Q. O'zbekiston xalq ta'limining rivojlanish tarixi. T. O'qituvchi. 1998. Istiqlol va ta'lim. Xalq ta'limi mustaqillik yillarida. 1991–2001. T. "Ma'rifat – madadkor". 2001.

ko'plab ilmiy izlanishlarni taqozo etadi. Bugunda manaviy hayot, mafkuraviy kishanlar iskanjasidan xalos bo'ldi. Endilikda tarix fanida yangicha nazariy, uslubiy asoslar shakllanmoqda. Shunday oshkoralik, hurfikrlik sharoitida ta'lim sohalari yo'nalishlarida ham ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanmoqda. O'ylaymizki, bu boradagi dastlabki urinish bo'lgan tadqiqotimiz tarixiy haqiqatni tiklashga, maktabdan tashqari ta'lim tizimining taraqqiyoti tarixini xolisona o'rganishga baholi qudrat hissa bo'lib qo'shiladi. Bu tizimning kelgusida yanada takomillashuvi va rivojlanishiga yordam beradi.

## **I – Bob. Istiqlol odimlari: ta'lim va istiqbol.**

### **1.1 O'tish davrida maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining moddiy - texnika bazasini mustahkamlash.**

Mamlakatimiz siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritgan dastlabki kunlardan boshlab, bozor iqtisodiyotida talabga javob beradigan ta'lim tizimini tubdan yangilash borasida qator chora va tadbirlarni ishlab chiqdi. Respublikamizda strategik maqsadlardan kelib chiqib, 1997 yilda O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi. Milliy dasturning mano va mazmuni haqida “Biz qurayotgan jamiyat... Milliy qadriyatlarimiz va ma'naviyatimiz qayta tiklanishini, insonning ma'naviy – axloqiy barkamolligini ta'minlashi kerak”<sup>1</sup>- deb takidlaydilar muhtaram Yurtboshimiz.

Mazkur milliy dasturda ta'lim sohasini tubdan isloh etish, uni mafkuraviy cheklashlardan to'la xoli qilish, demokratik davlatlar darajasidagi, yuksak manaviyat va axloq talablariga javob beradigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratish vazifalari qo'yildi. Uni hayotga tadbiq etish natijasida jahondagi rivojlangan mamlakatlar mezonlari talablariga javob beradigan ta'lim tizimi shakllantirildi. Unga muvofiq insonning butun umri davomida muttasil ta'lim olish jarayoni, individual jihatlarini boyitish va salohiyatini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Ta'limni tubdan isloh qilishdan ko'zlangan asosiy maqsad – ta'limni yangi modelini ishga tushirib, mamlakatimizdagi mavjud ijtimoiy – siyosiy iqlimni butunlay o'zgartirish, mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirish, jamiyatimizning imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, dunyo miqiyosida munosib o'rinni egallashdir.

Binobarin, endilikda mamlakatimizda ta'lim tizimi rivojlanishining eng ustivor yo'nalishi sifatida qaralmoqda. Mamlakatda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish natijasida uzliksiz ta'lim – tarbiya tizimiga asos soladigan tadbirlarni amalga oshirish, ijtimoiy himoyani kafolatlash kabi vazifalar hayotda o'z ifodasini topdi. Bugungi

---

<sup>1</sup> Karimov I. A. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. T. “O'zbekiston”.1992. 36 – bet.

kunda mamlakatimizda «2004 – 2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi»ni amalga oshirish yuzasidan keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Huddi shu davrda yosh avlodga ta'lim - tarbiya berishning muhim yo`nalishlaridan biri - maktabdan tashqari ta'lim muassasalaridagi ahvol barchamizning qiziqtirishi tabiiy. Prezidentimiz tabiri bilan aytganda « Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo`lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog`liq»<sup>1</sup>.

Bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda, maktabdan tashqari ta'limning dolzarbligi, o`sib kelayotgan yosh avlodni mustaqil yurtiga sodiq, millati, milliy urf - odatlari va qadriyatlarini unutmagan holda tarbiyalash bilan bir qatorda, ularni kelajakda o`z o`rinlarini topishlari uchun imkoniyat yaratish, qiziqishlari bo`yicha zamonaviy va milliy kasb – hunar sirlarini o`rgatish, har tomonlama barkamol inson bo`lib yetishishlariga zamin yaratish lozim. Bu ish esa o`z navbatida maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining ta'lim sohasidagi o`rni va vazifalarini amalda ko`rsatishni talab etadi.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 25 maydagi 321- sonli qarori bilan tasdiqlangan “2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi”da maktabdan tashqari ta'lim masalalari kiritilmaganligini hisobga olib, yuqoridagi buyruqning ijrosini to`liq ta'minlash, hamda o`quvchi yoshlarning qiziqish ehtiyojlarini to`laroq qondirish, ularning bo`sh vaqtlari va dam olishlarini to`g`ri tashkil etishda “Ta'lim to`grisida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da belgilangan vazifalarni bajarish, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari tarmog`ini yanada rivojlantirish, ular faoliyatini takomillashtirish maqsadida Respublika va viloyatlar miqyosida keng ko`lamli ishlar amalga oshirildi.

O`quvchi - yoshlarga turli kasb sirlarini o`rgatish, ularni hayotga tayyorlash va qiziqishlariga qarab maktabda olgan bilimlarini rivojlantirish, amaliyotga mustahkamlash maqsadida bugungi kunda respublikamiz miqyosida jami 570 ta maktabdan tashqari ta'lim muassasalari faoliyat yuritmoqda.

Respublikamizda joylarda maktabda tashqari ta'lim muassasalarini rivojlantirish maqsadida 6 ta markaz, ya'ni Respublika o`quvchilar saroyi, Respublika o`quvchi yoshlar Markazi, Respublika Yosh sayohatchilar va o`lkashunoslar Markazi, Respublika o`quvchilarining «Bioekosan» o`quv uslubiy majmuasi, Respublika o`quvchi - yoshlar texnik ijodiyot Markazi va Respublika bolalar badiiy ijodiyot Markazi yoshlarga kasb hunar sirlarini o`rgatib kelmoqda.

---

<sup>1</sup> Karimov I. A. Yuksak manaviyat - yengilmas kuch. T. “Manaviyat”, 2008. 61 - bet

Respublika bo'yicha jami maktabdan tashqari ta'lim muassasalari 2005 yilda 553 tani tashkil etgan bo'lsa, 2006 yil yakuniga kelib bu ko'rsatgich 570 taga yetdi. Ulardagi to'garaklar soni 2005 yilda 24888 tani, to'garaklarga jalb etilgan o'quvchilar soni esa 539483 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2006 yil yakuniga kelib to'garaklar soni 30616 taga, ularga qatnashuvchi o'quvchilar soni esa 550044 nafarga yetdi. Bundan ko'rinib turibdiki, 2005 yilga nisbatan maktabdan tashqari ta'lim muassasalari soni 17 taga (3,1 %), to'garaklar soni 5728, taga (23 %) hamda to'garaklarda ta'lim – tarbiya olayotgan o'quvchilar soni esa 10561 nafarga (2%) oshgan.<sup>1</sup>

Respublikamizdagi mavjud 570 ta maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining 258 tasi (54,3%) o'quvchilar ijodiyot markazlari, 120 tasi (21,1%) texnik ijodiyot markazlari, 101 tasi (17,7 %) ekologiya markazlari, 54 tasi (9,5%) yosh sayohatchilar va o'lkashunoslar markazlari va qolgan 37 tasi (6,5%) boshqa turdagi (sog'lom avlod markazlari, bolalar istirohat bog'lari, til markazlari, nutq markazlari, kasbga tayyorlov markazlari va boshq) maktabdan tashqari ta'lim muassasalari hisoblanadi<sup>1</sup>.

Aynan Navoiy viloyatida maktabdan tashqari 14 ta ijodiyot markazlari va 14 ta BO`SM lar faoliyat ko'rsatmoqda. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalari 6 yo`nalishda: texnik ijodiyoti, ijodiyot, milliy hunarmandchilik, usta - shogird, ekologiya, sayyohlik va o'lkashunoslik yo`nalishlarida tashkil etilgan. Viloyatda 10 ta o'quvchilar ijodiyot markazlari, 1 ta o'quvchilar texnik ijodiyot markazi, 1 ta o'quvchilar «Bioekosan» markazi, 1 ta yosh sayohatchilar va o'lkashunoslar markazi va 1 ta Xorijiy tillar markazlari va 14 ta BUSMLari faoliyat olib bormoqda<sup>2</sup>.

Ijodiyot yo`nalishidagi muassasalar qoshidagi to'garaklarga viloyat bo'yicha jami 8281 nafar o'quvchi jalb etilgan bo'lsa, texnik ijodiyot yo`nalishidagi to'garaklarga 3709 nafar o'quvchi, Bioekosan yo`nalishidagi to'garaklarga 2209 nafar o'quvchi, sayyohlik va o'lkashunoslik yo`nalishidagi to'garaklarga 2338 nafar, xorijiy tillar markazlarida esa 180 nafar o'quvchi yoshlar jalb qilingan. Viloyat bo'yicha 2007-2008 o`quv yiliga nisbatan viloyatdagi maktabdan tashqari ta'lim muassasalaridagi to'garaklar soni 2008- 2009 yilda 386 tadan 395 taga ko`paygan, ularga jalb qilingan o'quvchilar soni 16632 (10.3%) nafardan 16717 (11.2 %) nafarga o`sgan. Jami to'garaklar soni 2007- 2008 o`quv yilida 8462 tani, ularga jalb qilingan o'quvchilar soni 142098 nafar yoki 96. 1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2008- 2009 o`quv yilida

---

<sup>1</sup>“Xalq talimi”. Jurnal. 2007 yil 1-son, 131 – bet ( Maktabdan tashqari talim muassasalarining bugungi ahvoli va istiqbollari)

<sup>1</sup>“Xalq talimi". Jurnal. 2007 yil 1-son, 131 – bet ( Maktabdan tashqari talim muassasalarining bugungi ahvoli va istiqbollari)

<sup>2</sup>Navoiy viloyati xalq talimi boshqarmasi joriy arxivi

to`garaklar soni 8501 tani, ularga jalb qilingan o`quvchi - yoshlar soni 143475 nafarni yoki 96.5 % ni tashkil qilmoqda. Viloyat bo`yicha 2007-2008 o`quv yiliga nisbatan 2009 – 2010 o`quv yilida maktabdan tashqari ta'lim muassasalaridagi to`garaklar soni 1612 tadan 1625 taga ko`paygan, ularga jalb qilingan o`quvchilar soni 16632 (10,3 %) nafardan 16717 (11,2%) nafarga o`sgan. <sup>3</sup>

Umumta'lim maktablarda fan va qiziqishlar bo`yicha tashkil etilgan to`garaklar 2007-2008 o`quv yiliga nisbatan 5917 tadan 5987 taga yoki 1,2 %ga oshgan bo`lsa, ularga jalb qilingan o`quvchilar soni 2007-2008 o`quv yilida 109313 nafarni yoki 71,9 % ni tashkil qilgan bo`lsa, 2008-2009 o`quv yilida 108370 nafarni yoki 72,6 % ni tashkil etmoqda. Viloyat bo`yicha jami to`garaklar soni 2009-2010 o`quv yilida 8462 tani, ularga jalb qilingan o`quvchilar soni 156098 nafar yoki 96,1% ni tashkil etadi.

Jumladan, Navoiy shahar xalq ta'limi tasarrufidagi maktabdan tashqari 5 ta ta'lim muassasalarida esa 3746 ta o`quvchi jalb qilingan:<sup>1</sup>

T. r.	МТТМ nomi	To`garaklar soni	Pedagoglar soni	O`quvchilar soni		
				Жами о`қувчи	о`ғ`ил лар	қизлар
1	УИМ	35	35	1280	580	700
2	3-БУСМ	81	33	1078	750	328
3	4-БУСМ	88	30	1100	893	207
4	БМСМ	-	33	288	111	177
5	Футбол	1		10		
	<b>Жами:</b>	<b>204</b>	<b>131</b>	<b>3746</b>	<b>2334</b>	<b>1417</b>

Respublika xalq ta'limi boshqarmasi tomonidan O`zbekiston Respublikasi “Ta'lim to`g`risida”gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi hamda 2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturini bajarilishi yuzasidan maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida aynan uni moddiy texnika bazasini mustahkamlashga qaratilgan muayyan ishlar amalga oshirilgan. Muassasaning moliyaviy ta'minoti O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 26 fevraldagi PF-3857-sonli “Xalq ta'limi muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish to`g`risida”gi Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 30 martdagi 63-sonli “Xalq ta'limi muassasalarining moliyaviy iqtisodiy ta'minotini takomillashtirish chora tadbirlarini amalga oshirish to`g`risida”gi qarori asosida tashkil etilgan.

<sup>3</sup> Shu erda: ( Maktabdan tashqari talim muassasalarining 2008-2009 o`quv yili uchun hisoboti)

<sup>1</sup> Navoiy viloyat xalq talimi boshqarmasi joriy arxivi. ( Maktabdan tashqari talim muassasalarining 2008-2009 o`quv yili uchun hisoboti)

O'tgan qisqa davr mobaynida bu borada keng ko'lamdagi ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 2006 yilda Davlat byudjetidan 207,7 mlrd. so'm mablag` ajratilgan holda 22354 o'rinli 62 ta maktab binolari butunlay yangidan bunyod etilgan bo'lsa, 136651 o'rinli 386 ta maktab binolari kapital rekonstruksiya qilindi. Bundan tashqari, 277839 o'rinli 530 maktab binolari kapital va 348 ta maktab binolari joriy tamirlashdan chiqarildi.<sup>1</sup>

Ayni paytda 2004-2005 yillarda maktabdan tashqari ta'lim muassasalaridagi qurilish - ta'mirlash ishlari va o'quv jihozlari uchun 703,7 mln. so'm, 2006 yilda esa 1,258 mlrd. so'm buyudjet mablag`lari ajratildi. Bundan tashqari homiylik tomonidan 2004-2005 - yillarda 148,6 mln. so'm, 2006 yilda esa 89,9 mln. so'm mablag` ajratildi<sup>2</sup>.

Bugunda Respublika miqiyosida maktabdan tashqari ta'lim muassasalaridan 75 tasi (13,2%) zamonaviy binolarda, 396 tasi (69,5%) moslashtirilgan binolarda faoliyat olib bormoqda, qolgan 99 tasi (17,4 %) esa o'zining mustaqil binosiga ega emas, ya'ni ijara asosida faoliyat yuritadi<sup>3</sup>.

Navoiy viloyatida ham 2005 – 2009 yillar davomida viloyat xalq ta'limi muassasalari moddiy - texnika bazasini mustahkamlash bilan birgalikda ta'lim mazmunini takomillashtirish va samaradorlikka erishishga katta e'tibor qaratib kelingan.

Birgina maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi doirasida 2004-2008 yillarda viloyatimizda 200 dan ortiq umumta'lim maktablari, jumladan, 6 ta maktabdan tashqari ta'lim muassasalari yangidan qurilib, kapital rekonstruksiya qilingan. Ayrim ta'lim muassasalari kapital va joriy ta'mirlangan. Quvonarlisi shundaki, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining barchasi yangi o'quv laboratoriya jihozlari, axborot kommunikasiya vositalari, texnik va sport anjomlar bilan to'liq ta'minlangan, o'quvchilarning zamon talablari asosida ta'lim-tarbiya olishlari uchun to'laligicha sharoitlar yaratib berishga harakat qilib kelingan.

2007 yilda Navoiy viloyatidagi maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini mahalliy byudjet mablag`lari hisobidan joriy ta'mirlangan 6 ta maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining 21 ta qozonxonasi, 2760 pG'm ichki isitish tizimi, 1045 pG'm tashqi isitish tizimi, 51 ta isitish tarmog`ini bosim ostida tozalash, 980 pG'm issiqlik trassalarini izolyasiya qilish, 9310 kv.m. tomlar joriy ta'mirlangan. Shuningdek, jami bo'lib kapital rekonstruksiya ishlari tugatilgan maktablar va maktabdan tashqari ta'lim muassasalariga homiy tashkilotlar, maktab jamoasi va ota-onalar hisobidan 59053.0 ming so'mlik homiylik yordami amalga oshirilgan. Ayni paytda viloyatda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining yangilarini qurish borasida ham

---

<sup>1</sup> Talim Menejmenti. Jurnal . 2007 yil., № 1 - son, 11 – bet.

<sup>2</sup> Xalq ta'limi. Jurnal. 2007 yil 1-son, 131 – bet ( Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining bugungi ahvoli va istiqbollari)

<sup>3</sup> Shu yerda: 132-bet

amaliy ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, 2010 yil 21 mart kuni Viloyat hokimi E. Turdimov Navro'z ayomi arafasida Navoiy shahri "G'alaba" mahallasida joylashgan "Bolalar ijodiyoti markazi" ni ochilganligini elon qildi. Mazkur markazda 5 ta: - kulolchilik, amaliy sanat, zardo'zlik, tikish – bichish hamda aviamodelchilar to'garaki ish boshladi.<sup>1</sup>

Viloyat maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida qo'shimcha mablag'lar topish Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentabrdagi 414 - sonli qarori asosida olib borildi. O'quvchi - yoshlarning muassasadagi pulli to'garaklarga a'zo bo'lishi shartnoma asosida Nizomda belgilangan. Shu bois to'lov belgilangan tartibda bank muassasalarida ochilgan hisob raqamlariga to'lanadi. Shartnoma ishlari (pullik xizmatlar) asosan muayyan maktabdan tashqari ta'lim muassasasining yo'nalishi bo'yicha bajarilib borilmoqda. Bu esa muassasa faoliyatini tashkillashtirish va rivojlantirish imkonini bermoqda.

Bugunda viloyat maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining ayrimlarini o'z binosi bo'lmaganligi sababliular o'z faoliyatini umumta'lim maktablarida olib bormoqdalar. Ayni paytda Dastur asosida ularng moddiy - texnika bazasini rivojlantirishga qaratilgan vazifalar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, viloyat bo'yicha 2008 yilda jami bo'lib 66 ta ta'lim ob'yektlarida qurilish tiklash ishlari olib borilishi rejalashtirilgan bo'lib shundan, 1 ta maktab yangidan qurildi, 25 maktab kapital rekonstruksiya qilindi, 27 ta maktab kapital va 13 ta maktab binosi joriy tamirlanishi nihoyasiga yetkazilgan. 2009 yilning 23-avgustiga qadar Umid posyolkasidagi 630 o'rinli yangi maktab binosi 1513,3 mln so'mga qurilib foydalanishga topshirildi. Kapital rekonstruksiya qilinayotgan 25 ta maktabning hammasi bitkazilib foydalanishga topshirildi. Ular uchun esa 7117,3 mln. so'm mablag' sarflandi.<sup>1</sup>

Shuningdek, umumta'lim maktablari va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini mebel, zamonaviy o'quv laboratoriya asbob - uskunalari, kompyuter texnikasi hamda sport anjomlari bilan jihozlash to'g'risidagi Xalq ta'limi vazirligining 493-sonli qarorining ijrosini 2008 yilda ta'minlash maqsadida viloyatda Davlat umummilliy Dasturi asosida yangidan qurilgan, kapital rekonstruksiya qilingan, kapital va joriy tamirlangan 66 ta maktablarga mebel, zamonaviy o'quv laboratoriya asbob-uskunalari, kompyuter texnikasi va sport anjomlari olish uchun 192 komplekt 1-4 sinf xonasi, 83 komplekt 5-9 sinf xonasi, 22 komplekt ma'naviyat va ma'rifat xonasi, 43 komplekt kasbga yo'naltirish xonasi, 28 komplekt chizmachilik xonasi, 35

---

<sup>1</sup>«Do'stlik bayrog'i». Gazeta, 2010 yil, 25 – mart.

<sup>1</sup>Navoiy viloyati xalq talimi boshqarmasi joriy arxivi ( Maktabdan tashqari talim muassasalarining 2008-2009 o'quv yili uchun hisoboti)

<sup>2</sup> Shu erda:

komplekt tasviriy sanat xonasi, 31 komplekt chet tili xonasi, 57 komplekt fizika xonasi, 43 komplekt ximiya va biologiya xonasi, 11 komplekt ximiya xonasi, 11 komplekt biologiya xonasi, 52 komplekt kompyuter xonasi, 52 komplekt ustaxona, 26 komplekt rahbar xonasi, 46 komplekt o'qituvchilar xonasi, 9 komplekt monitoring xonasi, 29 komplekt kutubxona, 13 komplekt tibbiyot xonasi, 14 komplekt faollar zali, 20 komplekt sport zal, 3 komplekt yotoqxona jihozlari, 16 komplekt oshxonalariga buyurtma asosida taminlangan.<sup>2</sup>

Shu o'rinda viloyatimizda xayrli ishlarni qayd etish o'rinlidir. Masalan, maktab va maktabdan tashqari talim muassasalarini tamirlash va ijtimoiy sharoitini yaxshilash maqsadida "Qizil yarim oy jamiyati" 1 mln. 100 ming so'm, Navoiy kon metallurgiya kombinati 873 ming so'm, "Zilola" kichik korxonasi 500 ming so'm, "Navoiyazot" ishlab chiqarish birlashmasi 272119 so'm, Navoiy issiqlik Elektr stansiyasi 183 ming so'm va "Navoiy dori – darmon Hissadorlik jamiyati mehr – muhabbat yordamini ko'rsatdilar. Sog'lom avlod yili munosibati bilan o'tkazilgan "Xayriya marafonida 2 mln. so'mga yaqin mablag` "Mehribonlik uyi" bolalariga kiyim – kechak va zaruriy jihozlar uchun ajratildi. Zarafshon shahar maktab o'quvchilari uchun "SP – Zarafshon - Nyumont" qo'shma korxonasi 30 ming Amerika dollari ajratdi va shahardagi maktabdan tashqari talim bo'limi joylashgan 13 - maktabga bir komplekt kompyuter sinfi hadya etdi.<sup>1</sup>

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni takidlash o'rinliki, o'quv – tarbiya muassasasining moddiy - texnika bazasi - ta'lim mazmuniga tasir etuvchi asosiy omillardan biridir. Tadqiqotimiz natijalari shuni tasdiqlamoqdaki, bugungacha respublika va mahalliy buyudjetlardan 6 mlrd. so'mga yaqin mablag` ajratib kelingan, bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilgan bo'lsada, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini o'quv jihozlar va zamonaviy kompyuter texnikalari va ko'rgazmali qurollar bilan taminlash, kitob hamda kiyim jovonlari kabi mebellarni almashtirish zaruriyat bo'lib qolmoqda. Hali bu yo'nalishda bajarilishi kechiktirib bo'lmaydigan vazifalar, muammolar o'z yechimini kutmoqda. Ayniqsa, bu tumanlar maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida ko'zga tashlanmoqda. Demak, yutuqlar bilan bir qatorda hali nihoyasiga yetmagan yoki yanada takomillashtirilishi va istiqbolda hal etilishi lozim bo'lgan vazifa va muammolar mavjud. Bu vazifalarni bajarish ta'lim muassasalari jamoasi qo'lidan keladi deb, o'ylaymiz.

## **1.2. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida sport to'garaklar -**

---

<sup>1</sup> Mustaqillik odimlari, islohotdagi tub burilishlar va natijalar. Navoiy. 2001. 7 – bet.

### **larining jonlanishi.**

Yosh avlodning barkamol voyaga yetishi uning nafaqat manan, jismonan ham sogʻlom kamol topishiga bogʻliq. Shu nuqtai nazardan, respublikamizda bolalar sportini rivojlantirish, ular oʻrtasida sogʻlom turmush tarzini targʻib etishga ham alohida etibor qaratilgan. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 31 dekabrda “Respublika Xalq taʼlimi vazirligi huzuridagi Bolalar sportini rivojlantirish jamgʻarmasining 2006 yil byudjetini hamda sport inshootlarini manziliy dasturini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi Farmoyishi asosida Respublika byudjetidan 26,9 mlrd. soʻm mablagʻ ajratildi. Buning natijasida hozirgi kunda Xalq taʼlimi tizimidagi 388 ta Bolalar va oʻsmirlar sport maktablari hamda 29 ta sport yoʻnalishidagi maxsus maktab – internatlarda 232765 nafar oʻquvchi – yoshlar, ulardan 44478 nafar oʻquvchi qizlar sport bilan shugʻullanmoqdalar. 2007 yilga kelib jismoniy tarbiya va sport bilan shugʻullanganlar soni 38 foizga yetgan<sup>1</sup>.

Yuqoridagi koʻrsatkichlar orasida Navoiy viloyati maktab va maktabdan tashqari taʼlim muassasalari oʻquvchilari salmoqli oʻrinni egallaydi. Binobarin, viloyatda sportning ommaviyligini yanada oshirish, taʼlim muassalarida «Sogʻlom xalq, sogʻlom millatgina buyuk ishlarga qodir boʻladi» sogʻlom turmush falsafasini keng targʻib qilish, jismonan sogʻlom va maʼnaviy boy oʻsib kelayotgan avlodni jismoniy tarbiyalashni yaxshilash muhim vazifalar sirasiga kiradi.

Bugungi kunda, viloyat umumtaʼlim va maktabdan tashqari taʼlim muassasalarida 6 yoʻnalishda: texnik ijodiyoti, ijodiyot, milliy hunarmandchilik, usta - shogird, ekologiya, turizm va oʻlkashunoslik yoʻnalishlarida toʻgaraklar faoliyat koʻrsatmoqda. Viloyatda 10 ta oʻquvchilar ijodiyot markazlari, 1 ta oʻquvchilar texnik ijodiyot markazi, 1 ta Oʻquvchilar «Bioekosan» markazi, 1 ta Yosh sayohatchilar va oʻlkashunoslar markazi va 1 ta Xorijiy tillar markazlari va 14 ta BOʻSMLari faoliyat olib bormoqda.

Viloyatda xalq taʼlimi boshqarmasiga qarashli 2 ta, tuman (shahar) XTB lariga qarashli 12 ta, jami 14 ta BOʻSMLarda bugungi kunda 20 ta sport turidan 85 ta boʻlim faoliyat koʻrsatmoqda.<sup>1</sup>

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 12 dekabrda «2008 yilda Bolalar sportini rivojlantirish jamgʻarmasi byudjetini va bolalar sport obʼyektlari qurilishining manzilli aniq dasturini tasdiqlash toʻgʻrisida»gi PK-743-sonli qarorining ijrosini taʼminlash maqsadida

<sup>1</sup> Talim menejmenti. 2007 yil, № 1- son., 11 – bet.

<sup>1</sup> Navoiy viloyati xalq taʼlimi boshqarmasi joriy arxivi ( Maktabdan tashqari talim muassasalarining 2007-2008 oʻquv yili uchun hisoboti)

<sup>2</sup> Dostlik bayrogʻi. Gazeta. 2010 yil, 6 – may.

Navoiy viloyat hokimining 2007 yil 17 dekabrda № 262-K sonli qarori chiqarilib, Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi viloyat filiali hisob rakamiga 2008 yilda jami bo'lib, 926,6 mln so'm ajratilgan edi. Shundan belgilangan reja 101,3 % ga bajarildi. Viloyatda sportning moddiy texnik bazasini yaratish maqsadida 2008 yil Manzilli dasturiga asosan 1 ta V-TIP dagi Bolalar sport majmuasi hamda 5 ta maktablar yonida sport zallari qurilib, foydalanishga topshirildi. Ushbu sport inshootlaridan ya'ni Navoiy shahridagi V-TIP Bolalar sport majmuasi, Karmana tumanidagi 13 - maktab, Tomdi tumanidagi 21- maktab, Xatirchi tumanidagi 15 - maktab yonidagi sport zali hamda Nurota tumanidagi 11 - maktab va 27 - maktablar yonidagi sport zallari belgilangan muddatlarda foydalanishga topshirildi. Umuman keyingi 10 yil ichida 53 ta bolalar sporti inshooti qurildi.<sup>2</sup>

Bolalar sport inshootlarini moliyalashtirish uchun viloyat filiali tomonidan 758,0 mln so'm, Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan 150,0 mln so'm mablag` ajratilib, bu mablag`lar bosqichma – bosqich amalga oshirilmogda. Bugungi kunda ushbu inshootlarda 818,5 mln. so'mlik qurilish - montaj ishlari bajarilib 764,4 mln. so'm mablag` sarflanishi ko`zda tutilgan. Shuningdek, “O`zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi” mablag`lari hisobidan 53 ta bolalar sporti inshooti barpo etilib, ular 120 turdagi 743.9 million so'mlik sport anjomlari va jihozlari bilan taminlandi.<sup>1</sup>

Foydalanishga topshirilgan sport inshootlariga 77,2 mln so'mlik 37 turdagi sport jihozlari hamda viloyatda kam ta'minlangan oilalarning sportchi o`quvchi bolalari uchun 139,1 mln. so'mlik kiyim - kechaklar olib kelinib joylarda maktab ma'muriyati ota - onalar, faxriy sportchilar ishtirokida suratga olinib tantanali ravishda topshirildi.

Bugungi kunda viloyat maktablar va sport maktablari ixtiyorida 187 ta sport zal, 381 ta voleybol, 269 ta futbol, 268 Basketbol, 116 ta mini futbol, 236 ta qo`l to`pi maydonchalari va 6 ta tennis korti, 7 ta stadion va kichik maydonlar 54 ta bo`lib, jami 1524 ta inshootlari mavjud. Ushbu inshootlarda birgina 2008 yilda darsdan bo`sh vaqtlari sport seksiyalarida (jismoniy chiniqish) bilan muntazam shug`ullanuvchilarning umumiy soni 32063 nafar (21,5 %) o`quvchi bo`lib, ulardan 12534 nafar (17,2 % ) qiz bolalar bo`lgan .

Viloyat xalq ta'limi boshqarmasi tasarufidagi 365 ta umumiy o`rta ta'lim maktablarida ta'lim olayotgan 149234 nafar (shundan 73067 nafari qiz bolalar) o`quvchilardan 135726 nafari (shundan 64566 nafari qizlar) jismoniy tarbiya darslarida shug`ullanib kelmoqda.<sup>2</sup>

---

<sup>1</sup> “XX asr” .Gazeta, 2010 yil, 1 aprel, № 13- son.

<sup>2</sup> Navoiy viloyati xalq ta'limi boshqarmasi joriy arxivi: ( Maktabdan tashqari talim muassasalarining 2008-2009 o`quv yili uchun hisoboti)

Bugungi kunda ularga 1053 nafar jismoniy tarbiya o`qituvchilari ta'lim-tarbiya berayotgan bo`lib ularning 676 nafari oliy, 273 nafari o`rta maxsusdir va 104 nafari to`liqsiz oliy Viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi tizimida 14 ta Bolalar - o`smirlar sport maktablari hamda 1 ta futbol maktab - internati mavjud.

Viloyat BO`SMLarda 973 ta guruhlar mavjud bo`lib, ularda 13308 nafar o`quvchilar (shulardan qizlari 2999 nafar) sportning 20 turi bo`yicha o`z mahoratlarini oshirmoqdalar. Ularga 415 nafar malakali sportchilar murabbiylik qilayotgan bo`lib, uning 219 nafari oliy, 188 nafari o`rta maxsus ma'lumotga ega<sup>3</sup>.

Tadqiqotlarimiz shuni tasdiqlamoqdaki, qishloq joylarida qiz bolalarning sportga bo`lgan qiziqishlarini orttirish maqsadida viloyatning barcha tumanlarida turli yo`nalishlardagi sport seksiyalari ochish va ularga aynan qizlarning ishtirokini ta'minlash chora – tadbirlari belgilangan. 2003 - 2008 yilning o`tgan davri davomida viloyat xalq ta'limiga qarashli sport zallari soni 147 tadan 176 taga, jami maydonlar soni 1044 tadan 1339 taga jumladan futbol maydoni 330 tadan 387 taga, voleybol maydoni 207 tadan 268 taga, basketbol maydoni esa 193 tadan 264 taga, qo`l to`pi maydonchalari 206 tadan 236 taga, tennis 2 tadan 6 taga, mini futbol 106 tadan 179 taga ko`paydi. Ushbu inshootlarda 2003 yilda sport bilan muntazam shug`ullanuvchilar soni 55301 nafar (27,3%)dan (shundan qizlar 10,8 %)ni tashkil etgan bo`lsa, bu ko`rsatkich 2008 yilga kelib 72881 nafar (39,6%)ga (shundan qizlar 22,6 %) oshgan.<sup>1</sup>

Viloyatda sportning ommaviy turlari bilan birgalikda bir qator yangi sport turlari ham (futbol, ayollar futboli, sinxron suzish, badiiy gimnastika kabi) rivojlanib bormoqda. 2006-2007 o`quv yilida sportning “Badiiy gimnastika” yunalishi bo`yicha tashkil etilgan sport seksiyalari soni 46 tani va ularga jalb qilingan qizlar soni viloyat bo`yicha 864 nafarni tashkil etgan bo`lsa, 2007-2008 o`quv yilida “badiiy gimnastika” bo`yicha sport seksiyalari soni 65 taga va ularga jalb qilingan qizlar soni 1026 nafarni tashkil etmoqda<sup>2</sup>. Ayni paytda 2003 yilda viloyatda 8 ta sport turidan (futbol, voleybol, kurash, boks, taekvando, karate, kurash, dzyu - do) seksiyalar faoliyat ko`rsatgan bo`lsa, 2008 yilda ushbu ko`rsatkich 23 tani tashkil etmoqda.

Sport - har bir kishining imkoniyatini, hatto cheklangan bo`lsada, iqtidorini, murod maqsadini yuzaga chiqarishda yordam bera oladi. Shu bilan birga, sport qalblarda umid chirog`ini yoqib, hayotga muhabbat va ishonch hissini oshiradi, buyuk maqsadlar sari yetaklaydi.

<sup>3</sup> Navoiy viloyati xalq talimi boshqarmasi joriy arxivi ( Boshqarma bo`limi hisoboti)

<sup>1</sup> Navoiy viloyati xalq talimi boshqarmasi joriy arxivi: ( Maktabdan tashqari talim muassasalarining 2007-2008 o`quv yili uchun hisoboti)

<sup>2</sup> Shu yerda

Darhaqiqat, bugunda bolalar sportiga e'tiborning ijobiy ta'sirida, muntazam sport bilan shug'ullanuvchilar miqdori ortib, viloyat yoshlari salmoqli yutuqlarga erishmoqda. Natijada o'quvchilar xalqaro va boshqa nufuzli sport musobaqalarda yutuqlarni qo'lga kiritmoqda. Jumladan, 2003 yilda 2 nafar sportchi (shundan qizlar 2 nafar) ishtirok etgan bo'lsa, 2007 yilda 20 nafar (shundan 16 nafar qizlar) ni tashkil etgan. Ushbu musobaqalarda sportchilar 2004 yilda 1 ta kumush, 2005 yilda 1 ta kumush, 2007 yilda 4 ta bronza, medallarini qo'lga kiritganlar<sup>1</sup>.

Viloyat o'quvchi - yoshlari, o'smirlar va qizlar orasida sport bilan muntazam shug'ullanish 2006 yilda Qarshi shahrida o'tkazilgan "Umid nihollari" sport musobaqalarida o'z natijasini ko'rsatdi. Ushbu musobaqada viloyat jamoasi 20 ta oltin, 14 ta kumush, 25 ta bronza, jami 59 ta medallarni qo'lga kiritganlar. Sport turlariga ko'ra sportchilar suzish bo'yicha umumjamo'a hisobida 2-o'rin, voleyboldan (qizlar) 2-o'rin, milliy kurash buyicha 3- o'rinni egallagan. Bularning ko'pchiligi maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining tarbiyalanuvchilaridir.<sup>2</sup>

Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tashkil topgandan buyon o'quvchi yoshlarni sportga ommaviy jalb qilish va ularning sog'ligini nazorat qilish natijasida bolalar kasalliklari kamaygan. Bundan tashqari antropometrik ko'rsatkichlarga ham erishilgan. Jumladan, 13-14 yoshdagi o'quvchilarning bo'yi 2008 yilda 2003 yildagiga nisbatan o'rtacha 1,9 sm, (qizlarda 1,3 sm)ga, og'irligi esa 3,2 kg (qizlarda 2,0 kg) ga ortgan.

Sport musobaqalarini o'tkazish unda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining ishtiroki yildan – yilga o'sib borgan. Masalan, 2008 yilda jamoalarning "Umid nihollari - 2008» sport musobaqalarini viloyat final bosqichi 18-31 mart kunlari Navoiy shahar, Karmana, Konimex, Xatirchi va Navbahor tumanlarda barcha imkoniyatlarga ega sport inshootlarida tashkil etilgan. Viloyat bosqichi tantanali ochilish marosimi 2008 yil 23 mart kuni Navbahor tumani "Beshrabot" sport majmuasida ochildi. Tantanali ochilishda barcha tuman, shahar xalq ta'limi bo'limlariga qarashli umumta'lim maktablarining tuman, shahar musobaqalarida g'olib bo'lgan 1098 nafar sportchi, 117 nafar murabbiy va 90 nafar hakam, jami 1305 nafar ishtirokchi jumladan, Navbahor tumanidan jami 1500 dan ortiq tomoshabin ochilish marosimida ishtirok etdi.<sup>1</sup>

2008 yil 12 martida 84-AF sonli buyrug'i ishlab chiqildi va joriy yilning 17-18 mart kunlari, «Quvnoq startlar» viloyat televizion sport musobaqasining viloyat final bosqichi

---

<sup>1</sup> Navoiy viloyati xalq talimi boshqarmasi joriy arxivi (Maktabdan tashqari talim muassasalarining 2005 - 2006 o'quv yillar uchun hisoboti)

<sup>2</sup> Shu yerda:

<sup>1</sup> Navoiy viloyati xalq talimi boshqarmasi joriy arxivi (Maktabdan tashqari talim muassasalarining 2008 - 2009 o'quv yili uchun hisoboti)

o`tkazildi, final bosqichida Navoiy shahar, Karmana tumani va Tomdi tumani jamoalari ishtirok etishdi va musoboqa natijasiga ko`ra Navoiy shahar jamoasi 1- o`rin, Karmana tumani 2-o`rin va Tomdi tumani 3 - o`rinni egalladilar.<sup>2</sup>

O`zbekiston «Yoshlik» Jismoniy tarbiya va sport jamiyati viloyat kengashi Respublikamiz mustaqiligining 17 - yilligi munosabati bilan hamkorlikda 2008 yilning 20-22 avgust kunlari Navoiy shahridagi suniy ko`lda triatlon sport turi buyicha tadbir tashkil etildi unda tuman, shaxarlardan jami 140 ( 70 nafari qizlar) nafar sportchilar ishtirok etdi. Ushbu musobaqaga 600 ming so`mlik sovg`alar berildi. 29-30 avgust kunlar Navbahor tumani « Beshrabod» sport majmuasida « Kichkintoy - shirintoy » sport tadbiri viloyat bosqichi o`tkazildi va bunda 70 ( 35 kizlar ) nafar kichkintoylar ishtirok etishdi. G`oliblarga 800 ming so`mlik sovg`alar tarqatildi.

Navoiy SHXTB ga qarashli 3 - Bolalar va o`smirlar sport maktabining Respublika birinchiligi va xalqaro musoboqalardagi ishtiroki diqqatga sazovor. 2008 yil 15-17 noyabr kunlari Toshkent shahrida erkin kurash bo`yicha 1993-94 yillarda tug`ilgan o`smirlar o`rtasida bo`lib o`tgan O`zbekiston kubogida shu maktab erkin kurashchilari viloyatimiz sharafini himoya qilishib ushbu musoboqada jamoalar orasida Respublikada 4-o`rinni, 2008 yil 21-25 noyabr kunlari Turkiya davlatining Bursa shahrida erkin kurash buyicha «6-internasional kubogi » xalqaro turnirida shu maktab tarbiyalanuvchisi Yuldoshev Sunnat ishtirok etib «BRONZA» medalini qo`lga kiritdi.<sup>1</sup>

Umumxalq bayrami «O`qituvchi va murabbiylar kuni» ni, jismoniy tarbiya va sport bilan keng nishonlash anana tusiga kirgan. Darhaqiqat, jismoniy tarbiya va sport bilan shug`ullanishni o`qituvchilarning kundalik turmush tarziga singdirish, o`qituvchilarning jismonan barkamol, baquvvat va sog`lom bo`lishiga, chiniqishiga, umumiy ish qobiliyatining o`shishiga yordam berish ijobiy natija beradi. Shu maqsad yo`lida «Yengil atletika» sport musobaqasini o`tkazish Nizomi tasdiqlanib uni har yili «O`qituvchi va murabbiylar kuni»ga bag`ishlab o`tkazishga erishib kelingan. Jumladan, Navoiy viloyati umumta`lim maktab o`qituvchi va murabbiylari o`rtasida Yengil atletika sport musobaqasining 1-tuman shahar bosqichi 2008 yilning 14-16 sentabr kunlari tuman shahar markazlarida o`tkazildi. Ushbu musobaqaning 2 - viloyat bosqichi esa 2008 yil 19 - 21 sentabr kunlari Navoiy shahar Istirohat bog`ida o`tkazildi. Yengil atletika sport musobaqalarining viloyat bosqichi yakunlariga ko`ra umumjamoa hisobida 1-o`rinni Qiziltepa tumani, 2-o`rinni Zarafshon shahri, 3-o`rinni Navbahor tumani jamoasi egalashdi. Viloyat bosqichi g`olib jamoa ishtirokchilariga Bolalar sportini

---

<sup>2</sup> Shu yerda:

<sup>1</sup> Navoiy viloyati xalq talimi boshqarmasi joriy arxivi (Maktabdan tashqari talim muassasa-

rivojlantirish jamg`armasi va «Yoshlik» JTSJ VKning qimmatbaxo sovg`a hamda diplomlari bilan taqdirlandilar.<sup>2</sup>

Viloyatda Bolalar va o`smirlar sport maktablari o`rtasida ommaviy sog`lomlashtirish, bolalar sportini rivojlantirish va targ`ib etish, o`quvchilarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug`ullanishga jalb etish, ularni mahoratini oshirish maqsadida ular o`rtasida sport musobaqalarini o`tkazish anana tusiga kirgan. Jumladan, Viloyat xalq ta'limi boshqarmasining 2008 yil 402-AF sonli buyrug`i asosida Bolalar va o`smirlar sport maktablari viloyat birinchiligi 2008 yil 9-11 dekabr kunlari, shashka sport turi viloyat xalq ta'limi boshqarmasiga qarashli 3-son BUSM bazasida, Dzyu-do, Erkin kurash, Yunon –rum kurashi va Boks sport turlari barcha imkoniyatlarga ega bo`lgan Navoiy shahar XTBga qarashli 3 - 4 BUSM bazalarida o`tkazildi. Viloyatda Nizomga asosan sportning 5 ta turidan o`tkazilgan musobaqalarga jami 486 nafar (shundan 32 nafari qizlar) sportchi yoshlar ishtirok etishdi. Viloyat bosqichi g`olib jamoalari musobaqalarning Respublika bosqichiga sportning Dzyu-do, erkin kurash va Yunon-rum kurashi bo`yicha Navoiy shahar 3-BUSM, Boks sport turi bo`yicha Navoiy shahar 4-BUSM, shashka sport turi bo`yicha esa viloyat XTBga qarashli 3-BUSM jamoalari ishtirok etdi. O`tkazilgan ushbu sport musobaqalarida faxrli birinchi, ikkinchi, uchinchi o`rinni olgan g`olib jamoalar va jamoa sportchilariga diplom va esdalik sovg`alar berildi.

Viloyat maktabdan tashqari ta'lim muassasalari mashg`ulotlarida muntazam qatnashib, hali ancha yosh bo`lishiga qaramasdan, sportning ananaviy karate - do yo`nalishi bo`yicha uch karra jahon chempioni, 15 ta oltin, 7 ta kumush medal sohibi Xatirchi tumaninig 7-sinf o`quvchisi Sanjarbek Xo`jamovni, shaxmat bo`yicha Birlashgan Arab Amirliklari davlatining Bahrayn shahrida o`tkazilgan musoboqasida qatnashib, jahon chempionatida ishtirok etish huquqini qo`lga kiritgan Zarafshon shahridagi 13 – maktab 7 - sinf o`quvchisi Mohinur Qahramonovnalarni viloyatdagilar va uning tengqurlari juda yaxshi tanishadi<sup>1</sup>. Shuningdek, Uchquduq shahrida faoliyat ko`rsatayotgan «Sokol» bolalar sporti majmuasida 8 ta seksiyada 250 nafar yosh sportchi shug`ullanayapti<sup>2</sup>.

Yuqoridagi bildirilgan fikr va mulohazalardan shuni anglash mumkinki, viloyatda maktabdan tashqari muassasalarda bolalar sporti o`zining yangilanish jarayonini boshidan kechirmoqda. Shuningdek, tadqiqotimiz natijalari shuni tasdiqlamoqdaki, yosh

---

larining 2008 - 2009 o`quv yili uchun hisoboti)

<sup>2</sup> Shu yerda:

<sup>1</sup> «Do`stlik bayrog`i» gazetasi, 2010 yil, 25 – mart.

<sup>2</sup> “XX asr” gazetasi, 2010 yil 1 aprel, №13- son

sportchilarimizning jahon sport musoboqalariga qatnashishi hali talab darajasida emas. Binobarin bu sohada BUSM lar faoliyatini yanada jonlashtirish lozim deb, o`ylaymiz.

### **1.3 Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida musiqa to`garaklari-ning faoliyati.**

Ijtimoiy hamkorlikning samarali bo`lishi o`quvchilar ongiga muqaddas tuyg`ularni - Vatanga muhabbat, milliy musiqiy qadriyatlarimizga sadoqat, millatlararo do`stlikka munosabatni saqlash, barcha musiqa mutaxassislarining mehnatini qadrlash, halol mehnatga va malum musiqiy kasbni egallashga intilish, ota – ona, qarindosh – urug`, muallim va sinfdoshlarga bo`lgan hurmat – ehtiromni yuqori qo`yish imkoniyatini yaratadi. Bu o`quvchilarning hayotda o`z o`rinlarini belgilab olishga, ularning insoniylik burchlarini qalban bajarishga ko`maklashadi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 8 iyul “Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy - texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo`yicha 2009-2014 yillarga mo`ljallangan davlat dasturi to`g`risida”gi PQ-910 sonli qarori asosida Xalq ta'limi vazirligining 2008 yil 6 avgustdagi 206 - sonli, Madaniyat va sport ishlari vazirligining 830 - sonli qo`shma buyruqlari maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida musiqa to`garaklarining yanada jonlanishi va rivojlanishiga turtki bo`ldi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 8 iyul “Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy - texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo`yicha 2009-2014 yillarga mo`ljallangan davlat dasturi to`grisida”gi PK-910 sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Navoiy viloyatidagi bolalar musiqa va san'at maktablarini yangidan qurish va kapital rekonstruksiya qilish bo`yicha 2009-2014 yillarga mo`ljallangan Davlat dasturi qabul qilindi. Hozirda Dastur asosida Xatirchi tumanida 6 – son BMSM, Karmana tumanida 2 – son BMSM larini qurish ishlari boshlab yuborildi<sup>1</sup>.

2008 yil 1 sentabrda Navoiy viloyatida madaniyat va sport ishlari boshqarmasi tasarrufidagi 11 ta bolalar musiqa va san'at maktablari tegishli binolarni, inshootlari, texnik vositalari, o`quv jihozlari, xodimlar shtat birliklari va boshqa moddiy boyliklari bilan xalq ta'limi boshqarmasi balansiga o`tkazildi. Shuningdek, tuman, shahar madaniyat va sport ishlari bo`limlari tasarrufidagi bolalar musiqa va san'at maktablarini tuman (shahar) xalq ta'limi bo`limlari balansiga o`tkazish uchun qo`shma komissiya tarkibi tuzildi. 2008 yil 1 sentabrdan boshlab barcha tuman, shaharlardagi bolalar musiqa va san'at maktablari moliyalashtirish xalq ta'limi bo`limlari tomonidan amalga oshirilishi moliya bo`limlari bilan kelishildi.

---

<sup>1</sup> Navoiy viloyati xalq ta'limi boshqarmasi joriy arxivi (Maktabdan tashqari talim muassasalarining 2008 - 2009 o`quv yili uchun hisoboti)

Bolalar musiqa va san'at maktablarini balansidan balansga o'tkazishda amaldagi qonunchilikga mos ravishda amalga oshirildi. Bugungi kunda ularning faoliyati xalq ta'limi vazirligi tomonidan berilgan Nizom asosida davom etmoqda. Viloyat xalq ta'limi boshqarmasi musiqa va san'at bo'limi ish rejasi, ommaviy tadbirlar rejasi tuzilib, shular asosida faoliyat olib borilmoqda.

Bugunda viloyat xalq ta'limi boshqarmasi tasarrufida 10 ta bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyat yuritib kelmoqda. 2009 yilda Zarafshon shahri Daugiztau qo'rg'onida aholi sonini inobatga olib, Zarafshon shahar hokimligi bilan kelishilgan holda, shu hududdagi 9-son bolalar musiqa va san'at maktabi 7-son bolalar musiqa va san'at maktabining filialiga aylantirildi. Hozirgi kunga kelib 10 ta bolalar musiqa va san'at maktablarida 201 nafar pedagog xodimlar 1533 nafar o'quvchi yoshlarga ta'lim tarbiya berib kelmoqdalar, shulardan 66 nafari oliy, 135 nafari o'rta maxsuslardir. Pedagog xodimlarning 56 nafari oliy toifali, 40 nafari 1-toifali, 41 nafari 2 - toifali, 74 nafari mutaxassislardir<sup>1</sup>.

Mavjud 10 ta bolalar musiqa va san'at maktablarida jami 1533 nafar o'quvchilar 11 ta yo'nalish bo'yicha ta'lim-tarbiya olishmoqda. Shulardan 486 nafari o'zbek xalq cholg'u asboblari, 11 nafari qozoq do'mbirasi, 45 nafari rus cholg'ulari, 52 nafari torli kamonli, 491 nafari fortapianino, 152 nafari xoreografiya, 185 nafari tasviriy san'at, 37 nafari amaliy san'at, 6 nafari teatr san'ati, 67 nafari an'anaviy xonanda va an'anaviy cholg'u yo'nalishlarida o'z bilimlarini oshirishmoqda<sup>1</sup>.

2009 yilning 1 oktabridan boshlab Karmana tuman 2-son bolalar musiqa va san'at maktabida yangi teatr san'ati yo'nalish ochilib, 6 nafar o'quvchi qabul qilindi. Yosh o'qituvchi Navoiy Madaniyat san'ati kollejini teatr san'ati yo'nalishini bitirgan Kenjayev Elyor bu o'quvchi yoshlarga o'zining bor bilimini berib kelmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, 2008-yilga nisbatan o'quvchilar soni 300 nafarga o'sishi ularning musiqa va san'atga bo'lgan ishtiyoqi va o'z iste'dodini o'stirishi, o'z ustida ishlashi, ustoz - shogird an'alarini davom ettirishlari uchun tajribali mutaxassislarning sa'yi - harakatlari, umumta'lim maktablarida mutaxassis o'qituvchilarning targ'ibot - tashviqot ishlari, yaxshi yo'lga qo'yilgan. Jumladan, Navoiy shahar 1-son bolalar musiqa va san'at maktabi, Nurota tuman 5-son bolalar musiqa va san'at maktablarini ish jarayoni va dars jarayonini joriy yilning oktabr oyida Navoiy viloyat

---

<sup>1</sup> Navoiy viloyati xalq talimi boshqarmasi joriy arxivi (Maktabdan tashqari talim muassasalarining 2008 - 2009 o'quv yili uchun hisoboti)

<sup>1</sup> Navoiy viloyati xalq talimi boshqarmasi joriy arxivi (Maktabdan tashqari talim muassasalarining 2008 - 2009 o'quv yili uchun hisoboti)

televideniya hamda Respublika televideniya “Yoshlar” telekanalidan bir necha bor efirga uzatilgani bunga yaqqol misol bo`la oladi.<sup>2</sup>

Shuningdek, 2009 yil oktabr oyida o`tkazilgan “Yangi-avlod” Respublika bolalar festivalining viloyat bosqichidan g`olib bo`lib, Respublika bosqichiga fortepiano yo`nalishi bo`yicha Navoiy shahar bolalar va musiqa maktabi o`quvchisi Azamatova Zilola, Zarafshon shahridagi bolalar san'at va musiqa maktabi o`quvchilari A. Arngold, A. Yakunina, Karmana tumanidagi bolalar san'at va musiqa maktabi doira sinfi o`quvchisi D. Abdunazarovlar tengdoshlari orasida o`z iste'dodlarini namoyish etib qaytishdi.

O`zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2009 yil 9 sentabrdagi “Bolalar musiqa va san'at maktablari uchun 2009-2010 o`quv yiliga mo`ljallangan o`quv rejani tasdiqlash to`g`risida”gi 239-sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan o`quv reja asosida o`quvchi - yoshlarga mashg`ulotlar o`tkazilmoqda. Viloyat xalq ta'limi boshqarmasi musiqa va san'at bo`limining ish rejasi, ommaviy tadbirlar rejasi tuzilib, shular asosida faoliyat olib borilmoqda.

Bugungi kunda yana Forteplano (26 ta), Torli kamonli (2 ta), O`zbek xalq cholg`ulari (26 ta), Rus xalq cholg`ular (7 ta), An'anaviy xonandalik (5 ta), An'anaviy cholg`u (7 ta), Estrada xonanda (1 ta), Xor dirijyorligi (3 ta), Jo`rnavez sinfi (10 ta), Musiqa nazariyasi (9 ta), Raqs (6 ta), Teatr (6ta), Tasviriy san'at (2 ta), Amaliy san'at (1 ta) mutaxassislariga ehtiyoj mavjud bo`lib bu ehtiyojni bartaraf etish yuzasidan targ`ibot ishlari olib borilmoqda.

Hozirda viloyatdagi mavjud bolalar musiqa va san'at maktablari joylashgan binolar soni 10 tani tashkil etib, o`quvchilarni qabul qilish quvvati 1902 nafar o`quvchi o`ringa mo`ljallangan. Mazkur binolarning 4 tasi loyiha asosida qurilgan bo`lib, 7 tasi moslashtirilgan binolarda joylashgan<sup>1</sup>. Ayni paytda takidlash o`rinliki, 2005 - 2008 yillar ichida 10 ta bolalar musiqa va san'at maktablari kapital ta'mirlanmagan, ularda faqat joriy ta'mirlash ishlari olib borilgan. Birgina Uchquduq tumanidagi maktabdan tashqari ta'lim muassasasi 2005 yilda kapital ta'mirlangan, xolos. Ayni paytda Viloyatdagi mavjud bolalar musiqa va san'at maktablarida kompyuter texnikasi soni 13 tani tashkil etib, ular ham personal kompyuterlardir, ayni paytda ularda kompyuter sinflari mavjud emas. Mavjud kompyuterlar esa elektron pochta va Internet tarmog`iga ulanmagan.

Bugungi kunda barcha bolalar musiqa va san'at maktablari ta'mirtalab ahvolda, ularda 232 ta xona mavjud bo`lib, shundan 159 tasi sinf xonasi, 45 tasi ma'muriy xonalar, 28 tasi xo`jalik va boshqa xonalardir. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 8 iyul “Bolalar

---

<sup>2</sup> Shu yerda:

<sup>1</sup> Navoiy viloyati xalq ta'limi boshqarmasi joriy arxivi (Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining 2008 - 2009 o`quv yili uchun hisoboti)

musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009 - 2014 yillarga mo'ljallangan davlat dasturi to'g'risida"gi PQ - 910 sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligining 2008 yil 9 oktabr "Jihozlash me'yorlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 272 - sonli buyrug'iga ko'ra respublikamizdagi barcha bolalar musiqa va san'at maktablari qatori Navoiy viloyatiga ham zamonaviy o'quv musiqa anjomlari bilan ta'minlash alohida yo'nalish sifatida belgilab berilgan.

Shunigdek, viloyatda bolalar musiqa va san'at maktablarida ta'lim mazmunini yangilash, o'quv - tarbiya jarayonida yangi fanlarni o'qitish, musiqa savodini o'rganish, raqs va ritmik harakatlarni bajarish yangilanish sari yuz tutmoqda. Fanning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda musiqa ijodkorligini mazmunini xalq an'analari bilan boyitishga harakat qilinayotir.

Ta'lim jarayonini rivojlantirish, uzviylikni ta'minlash uchun hamkorlik asosiy rol o'ynaydi. Musiqa san'ati shunday fanki u millat, til tanlamaydi, aksinch xalqlarni, millatlarni bir – biriga yaqinlashtiradi. Viloyatdagi musiqa va san'at maktablari oquvchilari bugunda chet ellarda ham o'z san'atlarini namoyish etib kelmoqdalar. Navoiy shahridagi musiqa va san'at maktabining oquvchilari iste'dodini ko'pgina chet el davlatlari muxlislari yaxshi biladi.

Tadqiqotlarimiz shuni tasdiqlamoqdaki, mamlakatimizda yosh avlodni porloq kelajagini taminlash uchun bu yo'nalishda qonuniy va huquqiy baza yaratilgan. Yoshlarning tezkor ijtimoiy – iqtisodiy o'zgarishlar, yangiliklar davrida ularni hayotlari va kelajaklariga tasir etadigan barcha omillarni qo'llagan holda, mavjud muammolarni bartaraf etish zaruriy holdir.

Shu munosabat bilan Prezidentimiz Islom Karimovning "Farzandlarimiz bizdan ko'ra yaxshiroq, aqlliroq, donoroq va albatta, baxtliroq bo'lishlari kerak"! degan so'zlarini esga olib o'tish o'rinli bo'lardi. Yurtboshimizning bu fikrlari yoshlarning manfaatlari yo'lida olib borilayotgan siyosatda o'z aksini topayotganini yana bir bor isbotlaydi. Shunday ekan, O'zbekiston yoshlari o'z kuch va intilishlarini mamlakatning ertangi kuni qanday bo'lishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan bugungi muhim ijtimoiy – iqtisodiy muammo va masalalarni hal etishga yo'naltirishlari lozim. Ularning o'sishi uchun barcha shart – sharoitlarni yaratib berishimiz, shu yoshlar ertangi kelajagimiz ekanligini ham aslo unutmasligimiz lozimdir.

**II –Bob. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining taraqqiyoti, ta'lim - tarbiya samaradorligining takomillashuvi va istiqboli.**

## 2. 1. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida mashg'ulotlarni o'tishini to'g'ri tashkillashtirish, darslik va o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash ta'lim samaradorligini oshirish omili.

Malumki, ta'lim sifati, o'qitish samaradorligini oshirishda ta'lim muassasalarining zamonaviy o'quv – laboratoriya uskunalari, kompyuter tex-nikasi, darsliklar va o'quv – metodik materiallar bilan taminlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai – nazardan, 2006 yilda byudjetdan tashqari Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan jami 54,1 mlrd. so'm mablag` ajratilgan holda umumta'lim maktablari, jumladan maktabdan tashqari ta'lim muassasalari 350 turdan ortiq maktab jihozlari bilan taminlandi. Etiborlisi shundaki, Dastur doirasida 2006 – 2009 yillar davomida 27 965,6 mln. so'mlik kompyuter texnikalari yetkazib berilgan. Bu ko'rsatkich keyingi yillarda esa 24 foizdan 48 foizga oshib borgan.<sup>1</sup>

Ta'lim sifati va o'quvchilarni darsliklar bilan ta'minlashni yaxshilash, hamda ularning ma'naviy saviyasini oshirish maqsadida keyingi 2006 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 3 ta (PK- 362sonli, PK-363-sonli va PK-381-sonli) qarorlari e'lon qilindi. Ushbu qarorlar ijrosi yuzasidan maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida ta'lim sifati yaxshilash, uni samaradorligini ta'minlash ishi boshlab yuborildi. Avvalo darslik va o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash borasida Navoiy viloyat xalq ta'limi boshqarmasi rahbarligida bir qancha vazifalar amalga oshirilgan. Jumladan, birgina Navoiy shahri maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini olib qaraydigan bo'lsak, quyidagi natijalarni ko'rishimiz mumkin<sup>2</sup>.

Т . р .	МТТМнинг номи	Жами о`қувчи сони	Давлат талаблари асосида машг`улотларни нг о`тилиши	Тарбияси оғ`ирлар	ногиронлар	Кам таъминланган оила фарзандлари
1	УИМ (О`смирлар ижодиёт маркази)	1280	1 о`қув йили-144 с 2-о`қув йили 216 с	10	8	20
2	3-БУСМ (Болалар ва О`смирлар спорт мактаби)	1031	3300 (33 штат бирлиги) 1 ойга 100-150 соат, 24 соат	9		50

<sup>1</sup> Talim Menejmenti. Jurnal . 2007 yil., № 1 - son, 5 – bet.

<sup>2</sup> Navoiy viloyati xalq talimi boshqarmasi joriy arxivi (Maktabdan tashqari talim muassasalarining 2008 - 2009 o'quv yili uchun hisoboti)

3	БМСМ (Болалар музика ва санъат мактаби)	288	Давлат талабларига ко`ра жами 1004 соат, Кичик синфларда 534 соат, юқори синфларда 470 соат	-	46	-
4	4-БУСМ	1234	(40 штат бирлиги) 4000 -1 о`қув йили 312 с -2 о`қув йили 416с. 1 йил о`қув машқ қилувчи гурӯҳга 12 соат, йилига 624 с 2 о`қув йили 14 соат, йилига 728 с -3 о`қув йили 18 соат, йиллик 936 соат, -уч йилдан юқо-рисига haftасига 20 соат, йиллиги 1040 соат.	10	-	19
5	Футбол мактаби	118	Давлат талаблари умумтаълим мактабларининг программаси асосида о`тилмоқда	-	-	10

Yuqoridagi jadvalda ko`rinib turibdiki, o`quv mashg`ulotlarning o`tkazilishi va meyori davlat ta`lim standarti asosida tashkil etilgan. Shuningdek, o`quvchi yoshlarning talab va istaklariga muvofiq qo`shimcha mashg`ulotlar o`tkazishga doir fanlar kiritilgan.

Viloyatdagi maktabdan tashqari ta`lim muassasalarida tarbiyasi og`ir va o`zlashtira olmaydigan o`quvchilarni qiziqishlariga qarab to`garaklarga jalb etish, ularga kasbiy ko`nikmalar hosil qilishga alohida e`tibor qaratilmoqda. Joylarda o`quvchilarni kasb - hunarga yo`naltirish pedagogik-psixologik tashxis markazlari orqali o`quvchilarning qaysi kasbga moyilligi aniqlanib, belgilangan o`quv reja asosida dars soatlari o`tkazilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 1 iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida Respublika maqsadli kitob jamg'armasini tashkil etish chora - tadbirlari to'g'risida" gi PK-363 sonli qarorining 5-bandi asosida 2006-2009 yillar mobaynida ta'lim muassasalari tomonidan foydalanishga berilgan ijara mablag'lari xalq ta'limi vazirligining ko'rsatmasi asosida tashkil etilgan.

Viloyat xalq ta'limi boshqarmasining 2008 yil 13 - martdagi № 85-sonli buyrug'iga asosan «Maktab, kutubxona, oila – jamoat tashkilotlari xayriya tadbirlari o'tkazilgan. Tadbirga har bir maktabdagi 9-11–sinf bitiruvchilari bir donadan badiiy adabiyotlar sovg'a qilishi bilan birga yetishmaydigan darsliklarni sotib olish va lotin alifbosidagi adabiyotlar bilan kutubxonalarni boyitish uchun homiylik keng jalb qilingan. Har yili vazirlik buyrug'i asosida viloyat xalq ta'limi boshqarmasi viloyat va tuman shahar hokimlari, tashkilot rahbarlariga xayriya tadbirining mazmun mohiyati tushuntirib berilib, ularni ushbu tadbirda ishtirok etishlariga erishib kelingan. Tuman shahar hokimlari esa bu masalaga jiddiy yondoshib barcha fermer xo'jaliklari va ishlab chiqarish korxonalarini bu xayrli ishga jalb qilgan. Jumladan, homiylik tashkilotlar o'zining farzandlari o'qiyotgan maktablarga yordam ko'rsatishgan. Homiylik tashkilotlardan 34.9 mln.so'm mablag yig'ilgan, xomiylik yordamlari mablag'lari 2007 yilga nisbatan 2.6 mln so'mga, 2006 yilga nisbatan esa 3.5 mln so'mga oshgan. 2008 yilda viloyat hokimining tashabbusi bilan Navoiy tog' - kon metallurgiya kombinati 1,1 mln. so'mga, Navoiy Qizilqum sement korxonasi 1,0 mln.so'mga, Navoiy azot ishlab chiqarish birlashmasi 0,9 mln. so'mga Navoiy shaharidagi maktablarga homiylik yordami ko'rsatgan bo'lsa, Konimex tumanidagi chorvachilikka ixtisoslashgan shirkat xo'jaliklari Qoraqalpoq va qozoq maktablari uchun 0,8 mln.so'mga, Nurota tumanidagi shirkat xo'jaliklari esa tojik maktablari uchun 0,7 mln.so'mga homiylik yordami ko'rsatilganligi o'quvchilarni darsliklar bilan ta'minlash samaradorligini oshirishga qo'shilgan hissadir.

2008 yilda o'tkazilgan «Xayriya marafonidan» viloyat viloyat bo'yicha jami 67,4 mln so'm mablag yig'ilib, umumta'lim maktablari kutubxonalari fondi jami 4450 nusxadagi darsliklarning yangi avlodi va 21200 nusxadagi badiiy adabiyotlar bilan to'ldirilgan. Shundan homiylik tomonidan 18000 nusxa badiiy adabiyotlar, 3250 nusxa darsliklar sovg'a qilingan bo'lsa, bitiruvchi sinf o'quvchilariga 1200 nusxa darsliklar va 3200 nusxa badiiy adabiyotlar sovg'a qilindi. Shuningdek, 2008 yilning 17 noyabr kuni viloyat markazida Respublika kitob savdosining viloyat bo'limi bilan hamkorlikda darsliklar ko'rgazmasi - yarmarkasi o'tkazildi. Yarmarkada Toshkentdagi 10 dan ortiq markaziy nashriyotlarning vakillari 2009 yilda nashr etiladigan 12 nomga yaqin darsliklari namunalari bilan ishtirok etishdi. 2008 yil davomida viloyat ta'lim muassasalarining 150 ta kutubxonalari huzurida kitob bilan savdo qiluvchi

do`konlar tashkil qilinib, ularda 6 tilda 84 nomda 25500 ga yaqin darsliklarning yangi avlodini sotish tashkil qilingan. Natijada viloyat ta'lim muassasalarida darsliklar bilan ta'minlanish 2008 yil yakunlariga ko`ra ta'lim o`zbek tilida 99%, rus tilida 98,7%, qozoq tilida 98,7%, tojik tilida 98%, turkman tilida 98%, qorakalpoq tilida 98,6%ni tashkil etib, umumiy ta'minlanish 98,5% ni tashkil etdi. Bu esa 2004 yilga nisbatan 6,2 % (2004 yilda-92,3 % ), 2005 yilga nisbatan 4,3 % (2005 yilda-94,2 % ) o`shish demakdir<sup>1</sup>.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 20 iyundagi «Respublika aholisini axborot - kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to`g`risida» gi PK-381– sonli qarori ijrosini ta'minlash yuzasidan Respublika xalq ta'limi vazirligining 2006 yil 27 iyunda 166- sonli buyrug`i va viloyat hokimining 2006 yil 13 iyulda «Viloyat aholisini axborot -kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to`g`risida» gi 171-K qarori chiqarildi. Bu qarorlarni bajarish yuzasidan ta'lim muassasalarida o`tkazilgan xayriya tadbirlari, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining bitiruvchilari o`zlarni o`qigan muassasasa kutubxonasiga 1 (bir) donadan badiiy adabiyotlarni sovg`a qilishi natijasida viloyat kutubxonalarining badiiy abadiyotlar bilan to`ldirilishi bo`yicha va uni tillar bo`yicha umumiy fondi 2006 yilda 507743 nusxa, 2007 yilda esa 576963 nusxa badiiy adabiyotlar bo`lsa, 2008 yilda bu ko`rsatgich 634659 nusxani tashkil etdi. Bundan tashqari maktablar kutubxonalaridagi «Lotin yozuvidagi» badiiy adabiyotlarning umumiy fondi 2006 yilda 227991 nusxa, 2007 yilda esa 239311 nusxa badiiy adabiyotlar bo`lsa, 2008 yilda bu ko`rsatgich 287173 nusxani tashkil etdi<sup>1</sup>.

2006-2009 yillar mobaynida viloyat maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini axborot texnologiyalari, kompyuter bilan taminlashga katta etibor qaratilgan. Bugunda viloyatdagi maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining 91% da kompyuter sinflari jihozlangan. Viloyat Xalq ta'limi boshqarmasining 2006 yilning 8-iyulda 261-AF sonli va 2006 yilning 20 iyulda 272-AF sonli buyruqlari chiqarilib, viloyat Madaniyat va sport ishlari boshqarmasiga qarashli 14 ta bolalar kutubxonalari va 14 ta tarmoq kutubxonalari viloyat xalq ta'limi boshqarmasi ixtiyoriga o`tkazilgan edi. Axborot - resurs markazlarini faoliyatini yanada jonlantirish maqsadida O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi va Mehnat va ijtimoiy himoya vazirligi tomonidan tasdiqlangan shtatlar birligi bo`yicha 2008 yilning 1 - yanvaridan boshlab viloyat axborot-resurs markazida 49 nafar xodim, tuman

---

<sup>1</sup> Navoiy viloyati xalq talimi boshqarmasi joriy arxivi (Maktabdan tashqari talim muassasalarining 2008 - 2009 o`quv yili uchun hisoboti)

<sup>1</sup> Navoiy viloyati xalq talimi boshqarmasi joriy arxivi (Maktabdan tashqari talim muassasalarining 2008 - 2009 o`quv yili uchun hisoboti)

shaharlardagi ARM da 8 nafardan xodimlar faoliyat ko`rsatmoqda. Bugunda barcha ARMLar kompyuter va boshqa texnika vositalari bilan ta'minlanib, internet tarmog`iga ulangan.

Bundan tashqari 2008 yil uchun maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari hujjatlariga buyurtmalar vazirlik taqdim etgan formasi asosida ta'lim muassasalari soniga nisbatan tumanlar kesimida taqsimlangan. 2008-2009 o`quv yili uchun buyurtma asosida viloyat ta'lim muassasalariga 807 dona buyruqlar daftari, 759 dona pedagogik kengash bayonnomalari daftari, 829 dona o`quvchilar harakati daftari, 2828 dona 1-4 sinf jurnali, 4051 dona 5-9 sinf jurnali, 946 dona 10-11 sinf jurnali, 13635 dona pedagogik – psixologik tashxis daftari, 13635 dona baholar tabeli, 631 dona kuni uzaytirilgan guruh daftari, 1910 dona to`garak jurnali, 653 dona kutubxona daftari olinib, maktablarga yetkazib berildi Bu maktabdan tashqari muassasalarida hujjatlarining yuritilishi va ta'lim sifatini oshirishga yordam bergan.

O`quv ta'limni sifatini yaxshilash uchun ta'limning noan'anaviy shakllarini qo`llash borasida sinf – dars shaklidan foydalanish ijobiy natija beradi. Chunki bu o`quvchilarning o`quv muassasalari madaniy hayotiga tezroq singib ketishiga yordam beradi. Hozirda maktabdan tashqari muassasalarda sinf – dars shaklidan unumli foydalanib kelinmoqda. Dunyoning rivojlangan mamlakatlaridagi mavjud pedagogik texnologiya usullarini o`zlashtirish va dars jarayonida qo`llash an'ana tusiga kirmoqda. Baholashga oid uchul, vosita va ta'limning tashkiliy shakllarini to`g`ri tashkil etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bola faoliyati tarbiyasini hamkorlikda olib borish, bilim, malaka va ko`nikmani axloqiy talablariga uyg`un holda tarkib toptirish va ma'lum didaktik va metodik talablarga rioya etishga harakat qilinmoqda. O`quvchilar o`zlari tanlagan soha yo`nalishi bo`yicha qo`shimcha fanlarni ham o`zlashtirish imkoniyatiga ega bo`lishmoqda. Ularning talab va ehtiyojlariga muvofiq yangi fnalarning o`qitilishi yo`lga qo`yildi. Ularda malaka va ko`nikmalarni qaror toptirishga oid uslubiy qo`llanmalar chop etildi. Bu esa ularni fanlarni o`zlashtirishiga imkoniyat yaratib bermoqda.

Tadqiqotimiz natijalari shuni tasdiqlamoqdaki, o`quv jarayoni maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida, o`quvchilarning qiziqishlariga mos ravishda Davlat ta'lim standarti asosida to`g`ri tashkil etilgan. Muassasalar o`quv rejasidagi darsliklar va o`quv adabiyotlar bilan taminlanishiga katta etibor bilan qaralgan. O`quv jarayonida o`tilayotgan fanlarning aksariyati yangi avlod darsliklari va o`quv qo`llanmalari hisoblanadi. Bu esa maktabdan tashqari ta'lim muassasalari o`quv jarayonida sifat samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

## **2. 2. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini pedagogik kadrlar bilan taminlanishini samarali tizimini yaratilishi.**

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining uchunchi bosqichi 2005 undan keyingi yillarni o'z ichiga oladi. Unda asosan dasturning birinchi va ikkinchi bosqichlarida to'plangan o'quv – uslubiy, pedagogik, ilmiy tajribalarni tahlil etish va umumlashtirish, o'quv, tarbiyaviy va ilmiy jarayonga kengroq kirib borish, ilmiy – pedagogik kadrlarning saviyasini, kasbiy mahoratini oshirish vazifalari belgilangan edi.

Shu nuqtai – nazarda qaraganda o'quvchilarni maktabdan tashqari ta'limga qo'yilgan Davlat talablariga nisbatan qo'shimcha bilimlar egallashlari hamda qiziqishlari va ehtiyojlariga ko'ra, ularning ijodiy imkoniyatlarining zamonaviy tizimini shakllantirish, uni mazmunan takomillashtirish va maktabdan tashqari ta'lim muassasalariga uslubiy yordam ko'rsatish, to'garaklarni dasturlar, tavsiyalar, qo'llanmalar bilan ta'minlash maqsadli vazifalar sirasiga kiradi.

Qisqa fursatda Dastur doirasidagi vazifalar bosqichma – bosqich bajarilishiga kirishildi. Respublika miqyosida joylardagi metodik Markazlar, tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari tasarrufidagi metod kabinetlar va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari xodimlari tomonidan 824 ta uslubiy qo'llanmalar, dasturlar, tavsiyalar ishlab chiqilib, joylarda foydalanilmoqda. Respublika miqyosida 429 ta xodimlarning ilg'or ish tajribalari ommalashtirilgan.<sup>1</sup>

Ayni paytda Navoiy viloyat maktabdan tashqari ta'lim muassasalari markazida «Maktabdan tashqari ta'limga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish markazi» ning faoliyati yo'lga qo'yildi. Uning ish tajribasi respublika miqyosida ommalashtirilmogda.

Hozirgi kunda Respublikada jami maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida 13341 nafar pedagoglar faoliyat ko'rsatmoqda. Shulardan 4580 nafari (34,3 %) oliy, 556 nafari (4,2 %) tugallanmagan oliy, 6718 nafari (50,4%) o'rta maxsus va 1487 nafari (11,1%) o'rta ma'lumotlarni tashkil etadi<sup>1</sup>.

Viloyatdagi mavjud 365 ta umumta'lim maktablarida 16045 nafar pedagog xodimlar faoliyat ko'rsatmoqda. Umumta'lim maktablarida faoliyat kursatayotgan jami pedagog xodimlarning 11121 nafari (69,3 %) xotin qizlardir. Shuningdek, jami pedagoglarning 12375 nafari (77,1 %) oliy ma'lumotli, 910 nafari (5,6%) to'liqsiz oliy, 2760 nafari (17,2 %) o'rta maxsus ma'lumotli xodimlardir. Toifalari bo'yicha esa 744 nafari (4,6 %) oliy toifali, 3214 nafari (20,0 %) 1- toifali, 7027 nafari (43,7 %) 2-toifali, kolgan 5060 nafari (31,5%) esa mutaxassis bo'lgan o'qituvchilardir.<sup>2</sup>

Viloyatdagi umumta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan oliy ma'lumotli

<sup>1</sup> “Xalq talimi”. Jurnal. 2007 yil, № 1 – son, 133 – bet.

<sup>1</sup> Xalq talimi . Jurnal. 2007 yil, № 1 – son. 132 – bet.

o'qituvchilar tarkibi yildan - yilga ko'payib borgan. Jumladan, viloyat bo'yicha ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan jami o'qituvchilarga nisbatan oliy ma'lumotli pedagogik kadrlar bilan ta'minlanish 2004 yilda 68,0 %, 2005 yilda 73,4 %, 2006 yilda 73,8 %, 2007 yilda 74,6% ni tashkil etgan bo'lsa 2008 yilda bu ko'rsatkich 77,1 % ni tashkil etmoqda. Ya'ni yildan - yilga oliy ma'lumotli o'qituvchilar tarkibini ko'payganligini kuzatish mumkin, masalan 2004 yilga nisbatan 2008 yilda oliy ma'lumotli o'qituvchilar soni 9,1 % ga o'sgan.<sup>3</sup>

Shuningdek, o'rta - maxsus ma'lumotli o'qituvchilar tarkibi 2004 yilda 23,0 % ni, 2005 yilda 21,8 % ni, 2006 yilda 20,9 % ni, 2007 yilda 19,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2008 yilda 17,2 % ni tashkil etmoqda. Bu raqamlardan ham shuni ko'rish mumkinki, o'rta - maxsus ma'lumotli o'qituvchilar soni 2004 yilga nisbatan 2008 yilga kelib 5,8 % ga kamaygan.<sup>4</sup>

Ta'lim ishini standart talablari darajasida jahon andozalari asosida olib borish uchun o'qituvchilarning malakasini oshirish, yani ularni zamonaviy texnika va texnologiya bilan ishlashga o'rgatish davr talabiga aylandi. Shu maqsadda 2005 - 2008 yillar davomida kadrlar bo'limi tomonidan ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagog kadrlar salohiyatini oshirish, rahbar va pedagog kadrlarni joy - joyiga qo'yish, ularni tayyorlash, qayta tayyorlash borasida ham muhim ishlar amalga oshirilgan.

Bugunda Qoraqalpog'iston Respublikasi XTB, Toshkent shahri va viloyatlarda tashkil etilgan til markalari Angliya, Fransiya, Yaponiya, Koreya, Germaniya elchixonalari bilan ta'lim sohasida samarali hamkorlik qilmoqda. Bolalar badiiy ijodiyot Markazi tarbiyalanuvchilari doimo Xalqaro ko'rgazma-tanlovlarda ishtirok etishib, ulardan 56 nafari Yaponiya, Hindiston, Chexiya, Misr Arab Respublikasi, Shveysariyada o'tkazilgan tanlovlarda oltin, kumush, bronza medallari va sertifikatlar bilan taqdirlangan. Shularni tarkibida viloyatimiz Ijodiyot Markazlari o'quvchilarining borligi ko'zni quvontiradi.<sup>1</sup>

Viloyat ta'lim muassasalaridagi o'rta maxsus ma'lumotli o'qituvchilar oliy ma'lumot olishi uchun Respublikaning pedagogika yo'nalishidagi turli oliy o'quv yurtlarida tahsil olishmoqda. Masalan, Navoiy Davlat pedagogika institutining maxsus sirtqi bo'limida 244 nafar 1 kurs, 233 nafar 2 kurs, 253 nafar 3 kurs, jami 730 nafar o'rta-maxsus ma'lumotga ega bo'lgan o'qituvchilar oliy ma'lumot olish uchun tahsil olmokdalar. Shuningdek, Buxoro Davlat pedagogika institutining maxsus sirtqi bo'limida 17 nafar, Samarqand Davlat Universitetida 29 nafar navoiylik o'rta - maxsus ma'lumotli o'qituvchilar oliy ma'lumot olish uchun

---

<sup>2</sup> Shu yerda: 132 - bet

<sup>3</sup> Navoiy viloyati xalq talimi boshqarmasi joriy arxivi (Maktabdan tashqari talim muassasalarining 2008 - 2009 o'quv yili uchun hisoboti)

<sup>4</sup> Shu yerda:

<sup>1</sup> «Xalq talimi» jurnal. 2007 yil, №1 son, 134 – bet.

o`qishmoqda.<sup>2</sup>

Ta'lim muassasalaridagi pedagog kadrlarga bo`lgan ehtiyojni qoplanishi oxirgi yillarda yaxshilanib borilgan. Masalan, 2004-2005 o`quv yilida 418 nafar, 2005-2006 o`quv yilida 372 nafar, 2006-2007 o`quv yilida 182 nafar, 2007-2008 o`quv yili boshida 147 nafarni tashkil etgan bo`lsa, hozirgi kunga kelib bu ehtiyoj deyarli bajarilgan. Yani pedagog kadrlarga bo`lgan ehtiyoj asosan oliy o`quv yurtlarini bitirib kelayotgan yosh mutaxassislar hisobiga, NDPI ning 4-kurs bitiruvchilarini uzoq muddatli pedagogik amaliyotga yuborish evaziga hamda nomutaxassis va nopedagog bo`lgan o`qituvchilarni turdosh mutaxassislikka qayta tayyorlash hisobiga qoplangan.

Shuningdek, Xalq ta'limi vazirligining roziligi asosida 2007 yilda 100 nafar, 2008 yilda 86 nafar yuqori kurs talabalarini uzoq muddatli pedagogik amaliyotga yuborish evaziga viloyatning cho`l hududidagi maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari ehtiyoji to`liq qoplangan.

Respublikaning pedagogika yo`nalishidagi turli oliy o`quv yurtlarini bitirib kelayotgan yosh mutaxassislar soni yildan yilga ortib borgan. Masalan, viloyat bo`yicha 2004 yilda 541 nafar, 2005 yilda 572 nafar, 2006 yilda 612 nafar, 2007 yilda 711 nafar, 2008 yilda esa 1213 nafar yosh mutaxassislar ta'lim muassasalariga ishga kelishgan. 2008 yilda 2004 yilga nisbatan 672 nafar ko`p bo`lgan yosh mutaxassis ta'lim muassasalariga ishga joylashdi<sup>1</sup>.

Umumta'lim maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida faoliyat ko`rsatayotgan nomutaxassis va nopedagog o`qituvchilarni turdosh mutaxassislikka qayta tayyorlash ishlari ham yaxshi yo`lga qo`yilgan. Masalan 2004 yilda 1 ta boshlang`ich ta'lim kursi (25 nafar), 2005 yilda 1 ta kimyo kursi (18 nafar), 2006 yilda 2 ta boshlang`ich ta'lim kursi (54 nafar) va 1 ta o`zbek tili kursi (22 nafar), 2007 yilda 1 ta fizika kursi (25 nafar), 1 ta biologiya kursi (25 nafar), 1 ta o`zbek tili kursi (27 nafar), 1 ta tarix kursi (25 nafar), 2 ta kimyo kursi (45 nafar), 2 ta boshlang`ich ta'lim kursi (45 nafar) jami 192 nafar, 2008 yilda 181 nafar o`qituvchi qayta tayyorlovdan o`tkazildi<sup>2</sup>.

2004-2008 yillarda jami 492 nafar o`qituvchilar dars berayotgan fanlari bo`yicha qayta tayyorlovdan o`tib ikkinchi mutaxassislikka ega bo`lishdi.

---

<sup>2</sup> Navoiy viloyati xalq talimi boshqarmasi joriy arxivi (Maktabdan tashqari talim muassasalarining 2008 - 2009 o`quv yili uchun hisoboti)

<sup>1</sup> Navoiy viloyati xalq talimi boshqarmasi joriy arxivi (Maktabdan tashqari talim muassasalarining 2008 - 2009 o`quv yili uchun hisoboti)

<sup>2</sup> Navoiy viloyati xalq talimi boshqarmasi joriy arxivi (Maktabdan tashqari talim muassasalarining 2008 - 2009 o`quv yili uchun hisoboti)

Viloyat pedagoglarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining kurs rejalari doimiy ravishda bajarilib kelingan. Masalan 2004 yilda viloyat rejasi 3330 ta bo`lsa, 3383 taga bajarilgan, 2008 yilda esa reja 3275 ta bo`lsa, 3392 taga reja ortig`i bilan bajarilishiga erishilgan.

Xuddi shuningdek, A.Avloniy nomidagi markaziy malaka oshirish instituti rejasi ham yillar davomida to`liq bajarilib kelingan, masalan 2004 yildagi reja 227 ta bo`lsa, 233 ta(102,6)ga bajarilgan, 2008 yildagi reja esa 152 bo`lsa, 157 ta (103,2)ga bajarilgan<sup>1</sup>.

Yosh kadrlarning o`z kasbiy mahoratini oshirishga qaratilgan tadbirlarni viloyat miqiyosida o`tkazilib turilishi, o`qituvchilar amaliy faoliyatini to`g`ri tashkillashtirish imkonini bergan. Chunonchi, 2008 yil 23 avgust kuni “Yoshlar yili” Davlat dasturi doirasida “Yosh mutaxassislarni o`z kasbiga qiziqtirish, g`oyaviy-siyosiy jihatdan chiniqtirish va yosh avlodga ta`lim – tarbiya berishdagi vazifalari” mavzusida yosh o`qituvchilarning viloyat konferensiyasi bo`lib o`tdi. Konferensiyaning 1- qismi Navoiy shahridagi 11-umumta`lim maktabi negizida o`tkazilib, unda “Yosh mutaxassislarning odobi va pedagogik jamoaga moslashuvi, ta`lim jarayonida pedagogik texnologiya - do`stona muhitni yaratishning ahamiyati, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning tashkil etilishi, o`qituvchi mehnatini rag`batlantirish hamda yosh mutaxassislarning kasbiy mahoratlarini oshirish borasidagi Davlat talablari” masalalarida yosh o`qituvchilar uchun trening mashg`ulotlari tashkil etilgan. Trening mashg`ulotlari “Dunyoda betakror bu xalq bu vatan, vatanda betakror uztozi avval” mavzusidagi o`qituvchi kasbini ulug`lovchi, hukumatning maktab ta`limini rivojlantirish, o`qituvchi va murabbiylar mehnatini rag`batlantirish hamda o`sib kelayotgan yosh avlodga ta`lim - tarbiya berish uchun yaratilayotgan imkoniyatlarni targ`ib etuvchi badiiy musiqiy kompozisiya bilan yakunlangan.

Konferensiyaning 2 - qismi 2009 yilda viloyat hokimi qabuli tarzida tashkil etilib, unda 100 nafar yosh mutaxassis va 50 nafar tajribali o`qituvchilar ishtirokida o`tkazildi. Tantanada viloyat hokimi, senator E. Turdimov, NDPI rektori, professor X.Ibragimov, “Yilning eng yaxshi maktabi – 2005” Respublika ko`rik tanlovi g`olibi Guljahon Qarshiyevalar yosh o`qituvchilarni tabriklab, ularni o`z kasbiga bo`lgan qiziqishlarini yanada orttirib, ustozlar o`gitidan bahramand bo`lgan holda pedagogik mahoratlarini oshirib borishga da'vat etdilar.

Hokim qabulida “Yoshlar yili” Davlat dasturining 97- 98 bandlariga asosan 7 nafar yosh mutaxassisga “Ipoteka kreditlari, 8 nafar yosh o`qituvchilarga uy-joy qurish uchun yer uchastkalari, 1 nafar o`qituvchiga (Uchquduq tumanidan) 3 xonali kvartira hujjatlari va kaliti

<sup>1</sup> Navoiy viloyati xalq talimi boshqarmasi joriy arxivi (Maktabdan tashqari talim muassasalarining 2008 - 2009 o`quv yili uchun hisoboti)

topshirildi. Shuningdek 10 nafar yosh mutaxassis viloyat hokimining faxriy yorlig`i, 9 nafar yosh mutaxassisga mehnat daftarchalari va esdalik sovg`alari topshirildi.<sup>1</sup>

Ta`lim muassasalarida o`qituvchilarning kasbiy tayorgarligi va saviyasini oshirish maqsadida ilg`or o`qituvchilarning ish tajribasini ommalashtirishga ham katta e'tibor qaratilgan. Ilg`or pedagogik texnologiyani to`g`arak mashg`ulotlarida tatbiq etish maqsadida Respublika ta'lim markazi tomonidan 22 turdagi, viloyat metodika markazi tomonidan 12 turdagi uslubiy tavsiya va qo`llanmalar tayyorlanib tarqatilgan bo`lsa, 45 turdagi tavsiyalar o`zaro almashildi, viloyat pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti xodimlari tomonidan 10 turdagi uslubiy tavsiya va qo`llanmalar tayyorlanib ta'lim muassasalariga yetkazilgan.

«2004-2009 yillarda umumta'lim va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi» da umumta'lim maktablarini malakali pedagoglar bilan ta'minlash, o`qituvchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning samarali tizimini yaratish, ular mehnatini rag`batlantirishni kuchaytirish vazifalari qo`yilgan edi. Ana shu vazifani bajarish yuzasidan umumiy o`rta va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari pedagog kadrlari attestasiyasining 2006 - 2007 yillardagi 1-2-3-4- bosqich natijalariga ko`ra:

**Oliy malaka toifasini** tasdiqlash bo`yicha o`tkazilgan attestasiyaning yakunlariga ko`ra viloyatdan qatnashgan 535 nafar pedagogdan 480 nafari (89,7 %) o`z toifasini tasdiqlagan, 55 nafari (10,3 %) toifasidan pasaytirilgan.

**Birinchi malaka toifasini** tasdiqlash bo`yicha qatnashgan 2934 nafar pedagogdan 263 nafari (8,9%) ning toifasi oliyga ko`tarilgan, 474 nafari (16,2 %) toifasi pasaytirilgan, 2197 nafari ( 74,9%) o`z toifasini saqlab qolgan .

**Ikkinchi malaka toifasini** tasdiqlash bo`yicha qatnashgan 3014 nafar pedagogdan 511 nafari (16,9%)ning toifasi ko`tarilgan, 326 nafari (10,9 %) toifasi mutaxassis toifasiga tushirilgan, 2177 nafari o`z toifasini saqlab qolgan (72,2%).<sup>1</sup>

Shuningdek, pedagogik kadrlar mahoratini yanada oshirish maqsadida 2008 yil aprel oyida tuman (shahar) XTB tasarrufidagi tayanch maktablar negizida tashkil etilgan jami 68 ta “Hududiy metodik xizmat ko`rsatish markaz” larida maktab direktorining o`quv - tarbiya ishlari bo`yicha o`rinbosarlari hamda ilg`or fan Metodika birlashmasi rahbarlari uchun viloyat xalq ta'limi boshqarmasi bo`yicha “2008 yilda uzluksiz ta'lim tizimini mazmunan modernizatsiyalash

<sup>1</sup> Navoiy viloyati xalq talimi boshqarmasi joriy arxivi (Maktabdan tashqari talim muassasalarining 2008 - 2009 o`quv yili uchun hisoboti)

<sup>1</sup> Navoiy viloyati xalq talimi boshqarmasi joriy arxivi (Maktabdan tashqari talim muassasalarining 2008 - 2009 o`quv yili uchun hisoboti)

va ta'lim - tarbiya samaradorligini yangi sifat darajasiga ko'tarish bo'yicha belgilangan chora-tadbirlar dasturi" ni ijrosini ta'minlashga qaratilgan seminar - o'quvlar o'tkazilgan. Jumladan, 30 yanvar kuni Navoiy shahridagi 8-o'rta maktabda viloyat Metodika markazi tomonidan takomillashtirilgan DTS, modernizasiya qilingan o'quv dasturlarini tajriba - sinovdan o'tkazish ishlarini yanada yaxshilash maqsadida "Tajriba-sinov: natijalar, muammo va yechimlar" mavzusida hududiy seminar o'tkazilib, 37 nafar eksperimentator - o'qituvchilar hamda metodistlarning ishtirok etishi ta'minlangan.<sup>1</sup>

Viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi ta'lim muassasalarning ish faoliyatini muvofiqlashtirish ishida, oldingi safda turgan. Jumladan, boshqarma ish rejasiga asosan "Yangi tahrirdagi davlat ta'lim standartlari va modernizasiya qilingan o'quv dasturlarini amaliyotga joriy etilishi va o'quv laboratoriya jihozlaridan foydalanish samaradorligi ahvoli to'g'risida"gi masala Xatirchi tumanida maktabdan tashqari ta'lim muassasalari misolida o'rganilib, 31 yanvar kuni boshqarmaning hay'at majlisiga VXTB monitoring bo'limida natijalari o'rganib chiqilgan. Shuningdek, 2008 yil 25 yanvar kuni boshqarma huzuridagi uzluksiz metodik xizmatni takomillashtirish ishlarini muvofiqlashtiruvchi kengash yig'ilishida "Takomillashtirilgan DTS, modernizasiya qilingan o'quv dasturlarini tajriba-sinovdan o'tkazishning 2007-2008 o'quv yili 1-yarim yillik natijalari to'g'risida" gi (Navbahor va Karmana tumanlari misolida) masala ham o'rganib chiqilgan va tajribalar ommalashtirilgan.

2009 yilning yanvar oyi davomida tabiiy fanlar metodisti M.Eshqobilov tomonidan "Fizika va kimyo fanlaridan laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish samaradorligini yaxshilash" mavzusida, metodist U.Tirkasheva tomonidan "Alisher Navoiy tavallud topgan kunning 567 yilligini nishonlashga oid metodik tavsiyalar", metodist Q. Rajabov tomonidan "Sirtqi fan olimpiada"larini o'kazishga oid topshiriqlar ishlab chiqilgan va ularning ish tajribalari ommalashtirilgan.

Viloyat bo'yicha barcha bosqichdagi metodistlar tomonidan 2008 yil 1 iyul holati va Avgust kengashi sho'ba yig'ilishlari uchun jami 1640 ta tarqatma materiallar, shundan, 664 ta dars ishlanmalari, 427 ta test topshiriqlari, 312 ta metodik yo'riqnomalar tayyorlab yetkazilgan. Ilg'or ish tajribalarini ommalashtirishga oid materiallar 237 tani tashkil etadi.<sup>1</sup> 2007-2008 o'quv yili davomida viloyat Metodika markazi va barcha bosqichdagi metodistlar tomonidan jami 1248 ta metodik tavsiyanomalar ishlab chiqilgan. Shundan metodik tavsiyalar 567 tani, dars ishlanmalari 664 tani, test (amaliy) topshiriqlar 427 tani tashkil etadi. Barcha turda ilg'or

---

<sup>2</sup> Shu yerda:

<sup>1</sup> Navoiy viloyati xalq talimi boshqarmasi joriy arxivi (Maktabdan tashqari talim muassasalarining 2008 - 2009 o'quv yili uchun hisoboti)

pedagogik ish tajribalari ommalashtirilgan pedagoglar soni 2174 nafarni tashkil etadi. Shundan maktablarda 1425 nafar, tuman (shahar) larda 575 nafar, viloyatda 146 nafar, Respublika miqyosida ommalashtirilgan 28 nafarni tashkil etadi. (Respublika ko`rik - tanlovlari, matbuotda yoritish va h.k). Shundan 99 nafari hay'at yig'ilish qarori asosida, 31 nafari viloyat seminari shaklida, 27 nafari risola shaklida, 14 nafari matbuotda yoritish shaklida ommalashtirilgan. Shularning tarkibida Mustaqillik bayramiga bag`ishlab “Ko`zim qarog`i, qalbim ardog`idasan, Vatan!” namunaviy dars ishlanmasi” mavzuida dasturi ishlab chiqilib, joylarga yetkazib berilgan. Sentabr oyidan boshlab, haftaning har seshanba kuni maktabdan tashqari ta'lim muassasalariga “Dars tahlillari” kuni davom ettirilgan. Arxiv malumotlari shuni tasdiqlaydiki, birgina 2007-2008 o`quv yilida dars tahlillari jami 1341 soatni tashkil etadi<sup>1</sup>.

Respublikamizdagi barcha ta'lim muassasalarida faoliyat ko`rsatayotgan to`garak rahbarlarining ijodiy tashabbuskorligi, izlanishlarini qo`llab-quvvatlash hamda ilg`or ish tajribalariga ega bo`lgan to`garak rahbarlarini aniqlash, ularning mehnatini munosib taqdirlash va ommalashtirish hamda vazirlikning 2005 yil 5-iyuldagi «Maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini oshirish o`quv yili» yakunlari va rivojlantirish istiqbollari to`g`risida»gi 8G'1 –HB sonli buyrug`ining 2005-2006 o`quv yilidan boshlab har ikki yilda «Yil to`garak rahbari» ko`rik - anlovini o`tkazishni tashkil etish to`g`risidagi 9 - bandining ijrosini ta'minlash maqsadida, «Yilning eng yaxshi to`grak rahbari ko`rik- tanlovi» o`tkazib borilgan. Jumladan, 2006 yilning 30-31 may kunlari 5 ta, ya'ni «Badiiy estetik», «Ekologik», «Texnik ijodkorlik», «Sayyohlik-o`lkashunoslik» hamda «Xalq hunarmandchiligi» yo`nalishlari bo`yicha «Yil to`garak rahbari» ko`rik-tanlovi o`tkazilib g`oliblar rag`batlantirilgan. 2008 yil 23- 24 aprel kunlari Viloyat bolalar ijodiyot markazida o`tkazilgan Ko`rik - tanlov Nizom talablari asosida yuqori saviyada o`tkazilgan. Hakamlar hay'atining qaroriga asosan 5 ta yo`nalish bo`yicha 1- o`rin g`oliblari ko`rik - tanlovning Respublika bosqichiga yo`llanma olishgan. Sayyohlik yo`nalishida – Karmana tumanidan Sayilova SH, texnik yo`nalishida – Nozimova S, ekologiya yo`nalishida Kejayeva S, - Ijodiyot yo`nalishida Xoliqova M. lar 1- o`rinni egallashgan va VXTBning Faxriy yorliqlari va esdalik sovg`alari bilan taqdirlanishgan hamda g`oliblar tanlovning Respublika bosqichiga yo`llanma olishgan.

Bulardan tashqari, o`qituvchilarning kamtarona mehnatlari Prezidentimiz va hukumatimizning hamisha diqqat markazida bo`lgan. Ularning fidokorona mehnatlarini ulug`lash va qadrlashga katta etibor qaratib kelinmoqda. Dasturni amalga oshirishning dastlabki kunlaridanoq yosh avlodni teran fikrli, bilimli etib voyaga yetkazish hamda

<sup>1</sup> Navoiy viloyati xalq talimi boshqarmasi joriy arxivi (Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining 2008 - 2009 o`quv yili uchun hisoboti)

ularni yangi asrimizning yuksak bunyodkori darajasida tayyorlash uchun o`zlarining fidoiyligini, bilimini ayamagan va pedagogik ijodkorligi bilan o`z hamkasblariga namuna bo`lgan o`qituvchi va murabbiylarimiz hukumatimizning yuksak mukofotlariga sazavor bo`ldilar. Quyidagi ustozlar “O`zbekiston Xalq o`qituvchisi” unvoni sohibi bo`lishgan. Namozova Zamira (Xatirchi tumani), Murodov Hotam (Nurota tumani), Hotamov Hamid (Navbahor tumani), Oltinova Maqsuda (Navoiy shahri), Namozov Boboqul (Qiziltepa tumani) va hokazo. Jumladan, viloyatdagi maktabdan tashqari ta`lim muassasalari o`qituvchilarining erishgan yutuqlarini inobatga olib, 2009 yilda “O`qituvchilar va murabbiylar” bayramida Navoiy shahar bolalar san'at va musiqa maktabi direktori Vishnevskaya Irina Alekseyevna hamda Xatirchi tuman bolalar san'at va musiqa maktabi o`qituvchisi Norqulova Gulbahorlar “Xalq maorifi a'lochisi” ordeni bilan mukofotlangan<sup>1</sup>.

Tadqiqotimiz natijalari shuni tasdiqlamoqdaki, maktabdan tashqari ta`lim muassasalari pedagogik jamoalari davr bilan hamnafas, sobitqadamlik bilan islohatlarni oldigi safida borishmoqda.

### **2.3. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida manaviy - axloqiy tarbiya va marifiy ishlarning samarali shakllari.**

Ulkan islohotlar amalga oshirilayotgan yurtimizda o`z etiqodiga suyangan, tanlagan yo`lidan qaytmaydigan, vatan shanini har narsadan ustun deb biladigan yoshlarning bo`lishi davr talabidir.

Vatan ravnaqi va qudrati, jamiyat taraqqiyoti ma'naviy – axloqiy jihatdan yetuk, ma'naviy – ruhiy jihatdan yuksak, barkamol kishilar tafakkuri, ongi, idroki, salohiyati, tadbirkorligi, ijodkorligi tufayli hal qilinadi. O`z - o`zidan malumki, mustahkam etiqodga va mustaqil fikrga ega bo`lgan yoshlarga yurtimiz faravonligini yuksaklarga ko`tara oladi. Respublikamizda olib borilayotgan siyosatning va Prezidentimiz daatlarining mohiyatini ham manaviyati teran, boshqalar fikriga ergashmaydigan, iymon – etiqodi sof avlodni yetishtirish masalasi tashkil etadi. Zero, etiqodsizlik, turli yot oqim va mafkuralarga ergashish holati jamiyatni inqiroz sari yetaklaydi. Shu bois Prezidentimiz I. A. Karimov deyarli barcha asarlarida yoshlar tarbiyasiga jiddiy yondoshish va ularni yot g`oyalardan muhofaza qilish lozimligini takidlaydilar: “Takror aytishga to`g`ri keladi – ota – onalar, ustoz murabbiylar bu masalada hushyorlikni yo`qotmasligimiz, yoshlar tarbiyasida aslo beparvo bo`lmasligimiz zarur”<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Navoiy viloyati xalq talimi boshqarmasi joriy arxivi (Maktabdan tashqari talim muassasalarining 2008 - 2009 o`quv yili uchun hisoboti)

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak manaviyat - yengilmas kuch. Toshkent: Manaviyat, 2008. –15 – bet.

Respublikamizdagi keng qamrovli o'zgarishlar ta'lim tizimiga ham ijobiy ta'sirini o'tkazmoqda. Bugungi kunda kelajagimiz poydevori bo'lgan yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etilishi davlatimizning ustuvor vazifalaridan biri etib belgilandi. Ta'lim sohasidagi islohatlardan asosiy maqsad ham xalqimiz ongi va shuurida saqlanib kelayotgan vatanga etiqod g'oyalarini yosh avlodga singdirish, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida mamlakatimiz kelajagini belgilay oladigan barkamol hamda vatanparvar shaxslarni shakllantirishdan iboratdir.

Yosh avlodga zamonaviy talablar asosida bilim berish, ularni yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash masalasi davlatimiz va hukumatimizning doimiy e'tibor markazida bo'lib kelmoqda. Zero, manaviyatsiz tarbiyani, tarbiyasiz manaviyatni zuhur etish qiyin. Bu xususda Yurtboshimiz I.A. Karimov shunday ta'limot beradilar: "Manaviyat juda nozik tarbiyaviy soha. Buni o'zibo'larchilikka tashlab qo'yib bo'lmaydi"<sup>1</sup> Yuqoridagi aytib o'tilgan vazifalarni bajarish yuzasidan "2004-2010 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi" doirasida viloyat umumta'lim maktablari va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining moddiy - texnik bazasini mustahkamlash, ta'lim muassasalarida ijodiy muhitni rivojlantirish, ta'lim – tarbiya sifatini yanada yaxshilash maqsadida muhim ishlar amalga oshirilib kelingan.

Viloyatda matabdan tashqari ta'lim muassasalaridan 14 ta ijodiyot markazlari va 14 ta BO`SM lar faoliyat ko`rsatmoqda. Barcha maktabdan tashqari ta'lim muassasalari «Ta'lim muassasalarida ijodiy muhitni rivojlantirish» o`quv yilida o`quvchi yoshlarning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish hamda qaysi kasbga moyilligi va qiziqishlari borligini aniqlab, ularni to`garaklarga jalb etish, ekologik ta'lim tizimini takomillashtirish an'analarini yo`lga qo'yish, oila, maktab, mahallalar bilan hamkorlikni kuchaytirish samaradorligini oshirish, yoshlarni boshlang`ich kasb-hunarga yo`naltirish borasida faoliyat olib bormoqda.

2005-2010 yillar mobaynida viloyat umumta'lim va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida ma'naviy - ma'rifiy tarbiya samaradorligini oshirishga qaratilgan 222 ta ommaviy tadbirlar, 135 ta seminar –treninglar, 145 ta bahs – munozara kechalari tashkil etilib, bu tadbirlarda 4590 nafar o`quvchi va o`qituvchilar ishtirok etgan.

Viloyat hokimligining 1999 yil 27 yanvardagi qarori asosida "Viloyat madaniyat va marifat markazi"ning tashkil etilishi maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida to`garak ishlarining jonlanishiga, o`tkazilgan tadbirlarning yoshlarni har tomonlama barkamol inson

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy –ijtimoiy va iqtisodiy tamoyillari. T., "O'zbekiston, 1995, 49-bet.

qilib tarbiyalashiga ko`maklashgan. Xuddi shu yili o`quvchilarning qiziqishiga doir 4 yo`nalishdagi 295 to`garakka 12540 nafar o`quvchi jalb qilingan<sup>1</sup>.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalari to`garak a'zolari o`zlarining bilim va iqtidorini respublika miqyosida har yili o`tkazilayotgan «Nafosat» yosh qalamkashlar uchrashuvlari, «Kitobsevarlar», «O`zbekiston qo`shiq bayrami» ko`rik – tanlovlari hamda badiiy ijodiyot, texnik, ekologiya, sayyohlik va o`lkashunoslik yo`nalishlari bo`yicha har xil tadbirlar orqali namoyon etib borgan. Jumladan, Respublika tanlovlari ishtirok etib, 1-3 o`rinlarni egallagan iqtidorli o`quvchilar ma'lumotlari Respublika maktabdan tashqari ta'lim muassasalari tomonidan «Iqtidor banki» da jamlanib, ularning kelgusi faoliyatlari haqidagi ma'lumotlar bilan boyitib kelingan. Shuningdek, yoshlarni yetuk va barkamol inson qilib tarbiyalash maqsadida viloyat “Mahalla” jamg`armasi, “Kamolot” YOIH, o`rta maxsus kasb - hunar ta'limi boshqarmasi va viloyat Prokuraturasi bilan hamkorlikda o`quvchi-yoshlarni diniy ekstremizm, terrorizm, mafkuraviy hurujlar hamda yot g`oyalar ta'siridan himoya qilish maqsadida 230 dan oshiq tadbirlar, uchrashuvlar, seminarlar o`tkazilgan. Jumladan, Uchquduq tuman UIM da 2009 yil mart oyida tuman Prokuraturasi, IIB, “Mahalla” jamg`armasi bilan hamkorlikda “Sog`lom turmush tarzi va ma'naviyat” mavzusida turli uchrashuvlarning o`tkazilishi o`quvchi yoshlarning etiqodlarini mustahkamashga xizmat qilgan.

Respublika miqyosida o`quvchilarning kasbiy mahoratlarini oshirish, tabiatni, mamlakatimiz tarixiy obidalarini e'zozlash, badiiy mahoratlarini oshirish maqsadida turli yo`nalishda har xil tadbirlar o`tkazilib kelingan. Jumladan, 2009 o`quv yilida Respublikada o`tkazilgan “Yil to`garak rahbari” ko`rik - tanlovida Zarafshon shahar vakillari 3 - o`rinni, «Sehri yog`du» bolalar kino - foto festivalida Nurota tuman O`IM qatnashchilari faxrli 1-o`rinni, «Bolalar folklor dastalari» festivalida Nurota tuman 54-maktab jamoasi 2-o`rinni, “Ijodkor ekologlar” ko`rik - tanlovida Navoiy shahar o`quvchilari faxrli 1- o`rinni egallagan.

Navoiy shahar o`quvchilar ijodiyot markazida 2009 yil oktabr oyida «Bolalar huquqi bolalar nigohida» rasm chizish bo`yicha ko`rik - tanlovi viloyat bosqichi o`tkazildi. Bu tanlovda «Yosh musavvir» to`garagining a'zosi Toshev Jahongir ishtirok etib, 1 - o`rinni egallab, Respublika bosqichida faxrli o`rinni egalladi<sup>1</sup>.

“Yoshlar ijodida Navro`z” nomli bolalar tasviriy va amaliy san'ati Respublika ko`rgazma - tanlovida to`garak a'zosi Islamov Baxodir ishtirok etib, faxrli o`rinni egalladi.«Gullar va qushlar» bayramida Navbahor tuman BioEkosan markazi to`garak a'zolari 1 - o`rinni, “Texnik

<sup>1</sup> Mustaqillik odimlari, islohotdagi tub burilishlar va natijalar. Navoiy. 2001. 10 – bet.

<sup>1</sup> Navoiy viloyati xalq talimi boshqarmasi joriy arxivi (Maktabdan tashqari talim muassasalarining 2008 - 2009 o`quv yili uchun hisoboti)

ijodkorlik” tanlovida Qiziltepa tumani ishtirokchilari faxrli 2 - o`rinni, O`lkashunoslik yo`nalishida o`tkazilgan “A.Temur davlatchiligi tarixi” ko`rik - tanlovida Navbahor tumani o`quvchilari 3 - o`rinni, «Sharq taronalari» Respublika festivalida Navoiy shahar O`quvchilar ijodiyot markazining «Gulruh» jamoasi faxrli 2-o`rinlarni qo`lga kiritdilar. Bu tadbirlarda viloyat o`quvchilarining faxrli o`rinlarni egallashlari ularning bo`sh vaqtlarini to`g`ri tashkil etilishidan dalolatdir.

“YOZ- 2009” mavsumida o`quvchilarning bo`sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo`yicha maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida bir qator ishlar amalga oshirilgan. 2009 yil iyun - avgust oylarida “Kamolot” YOIH, IIB, Madaniyat boshqarmasi, SPID markazi, O`rta maxsus kasb-hunar boshqarmasi, viloyat televideniyesi va jamoat tashkilotlari bilan birgalikda tadbirlar rejasi tuzilib, o`zaro hamkorlikda tadbirlar o`tkazildi. Yoz mavsumida 14 ta maktabdan tashqari ta'lim muassasasiga 16717 nafar o`quvchi jalb etilgan. Yozgi oromgohlarda 19640 nafar o`quvchi sermazmun dam oldi. Oromgohlarga jalb etilmagan bolalarning bo`sh vaqtlarini to`g`ri tashkil etish bo`yicha ham chora - tadbirlar rejasi ishlab chiqilib, 22965 nafar o`quvchi sog`lomlashtirish maydonchalariga, 14106 nafar o`quvchi sayyohatlarga, 24530 nafar o`quvchi sport maktablariga jalb etildi. Sayohatlar rejasi ishlab chiqilib, tarixiy obidalar, tarixiy joylar, mustaqillik yillarida qurilgan buyuk inshootlar, muzeylarga ekskursiyalar tashkil etilgan. Qadimgi shaharlarga ekskursiyalar, yoshlarni eng avvalo, ajdodlarimizning me'moriy, tasviriy san'at mahoratiga estetik munosabatini, mehrini, milliy iftixor tuyg`ularini shakllantiradi, milliy qadriyatlarga, milliy madaniyatga hurmatini oshiradi, va nihoyat, qadimiy shaharlar hamda obidalarni restavrasiya qilish va ta'mirlash haqidagi hukumatimiz g`amxo`rligiga nisbatan muhabbatni yanada mustahkamlaydi. Navoiy shahridagi “Qosim Shayx”, Nurotaning “Chashma”, Buxoro shahridagi Ark, Samarqand shahridagi Go`ri Amir, Imom al Buxoriy tarixiy obidalar va Toshkent shahridagi muzeylar, me'moriy obidalarga bo`lgan ekskursiyalar o`quvchilarda katta taassurot qoldirdi.

Shuningdek, yoz oromgohlarda o`tkazilgan tadbirlar etiborlidir. Yoz davomida faoliyat ko`rsatayotgan barcha turdagi oromgohlarda 165 ta davra suhbat, 32 ta ko`rik – tanlov, 143 ta sport musobaqasi, 130 ta ekskursiya, 124 ta uchrashuv, 25 ta bahs munozara, 155 ta shou-konsert va boshqa madaniy ma'rifiy, sport tadbirlari o`tkazildi. SPID markazi bilan hamkorlikda 15 ta tadbir o`tkazilgan. Ichki ishlar idoralarining profilaktik hisobida turgan 185 nafar o`quvchi o`zlarining qiziqishlariga ko`ra turli to`garaklarga jalb etilgan<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Navoiy viloyati xalq talimi boshqarmasi joriy arxivi (Maktabdan tashqari talim muassasalarining 2008 - 2009 o`quv yili uchun hisoboti)

O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 18 - yilligi munosabati bilan barcha ta'lim muassasalarida uchrashuvlar, davra suhbatlari, ochiq muloqotlar, ma'naviyat soatlari o'tkazilib borilgan. 2009 yil 31 - avgust kuni viloyat Bolalar ijodiyot markazida "Mustaqillik baxtimiz, quvonchimiz" mavzusida adabiy - badiiy kecha o'tkazilgan. Kechada mahalla faollari, IIB xodimlari, "Kamolot" YOIH hamda ota - onalar ishtirok etishdi. Qiziltepa tumanida esa O'IM da "Mustaqillik mening taqdirimda" mavzusida ustoz- faxriylar bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Bu uchrashuvda 450 nafar o'quvchi, pedagog xodimlar qatnashdilar.

2009 yil 15 - sentabr kuni barcha maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida "Ochiq eshiklar" kuni o'tkazilgan. Bu "Ochiq eshiklar kuni" bayramona tarzda o'tkazilib, iste'dodli bolalar qo'li bilan yasalgan narsalar ko'rgazmasi tashkil etilgan.

Navoiy shahar o'quvchilar ijodiyot markazida milliy urf – odat, analarimizni ulug'lash, ularni yosh avlod ongiga singdirish maqsadida "Navro'z - boqiy qadriyat" mavzusida rasmlar ko'rik tanlovi ananaga aylantirilgan. 2009 yil mart ko'rik tanlov natijalariga ko'ra 1 - o'rinni "Joziba" to'garagi a'zolari A. Bozorov va M. Mizomova egalladi, 2- o'rinni "Gilamcha" to'garagi a'zosi I. Eliboyeva va "Yosh modelyer to'garagi a'zosi B. Rahmonova egalladi<sup>1</sup>.

Viloyat xalq ta'limining 2009 yil 20 – iyuldagi 268 – AF – sonli buyrug'iga asosan "Manaviyat kamalagi" dasturi ishlab chiqilgan. Mazkur dasturning asosiy maqsadi - viloyat xalq ta'limi tizimida ma'naviy – ma'rifiy ishlarni takomillashtirish, o'qitish jarayonida o'quvchining ma'naviyatini shakllantirishda o'qituvchi mas'uliyatini oshirish, ta'lim - tarbiya jarayonini muvofiqlashtirish uchun ta'lim muassasalarida uslubiy rahbarlik qilishni kuchaytirish, milliy g'oya va milliy mafkuramiz ruhida ta'lim - tarbiya sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, siyosiy o'quvlar va Prezident asarlarini o'rganishga katta e'tibor qaratib kelingan. Jumladan, maktabdan tashqari ta'lim maktablari direktorlari o'rinbosarlari uchun "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarini o'rganish bo'yicha 7 marta seminar o'tkazilgan. Asarni o'rganish bo'yicha boshqarmaning "Ziyokor sadosi" gazetasida 2 marta, Viloyat televidiniyasida 2 marta targ'ibot – tashviqot ishlari olib borilgan. Asarni mazmun - mohiyatini chuqur o'rganish hozirda ham davom etmoqda<sup>2</sup>.

Ta'lim – tarbiya jarayoni bir – biri bilan dialektik, uzviy, uzluksiz bog'lanishdadir. Biri ikkinchisini to'ldirishi taqazo etiladi, ta'lim jarayonini o'zida ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarning mushtaraklarini namoyon etadi. O'quv jarayonining vazifasi faqatgina bilimlar, ko'nikma va malakalarni shakllantiribgina qolmay,

<sup>1</sup> Do'stlik bayrog'i" gazetasi. 2010 yil, 25 – mart

<sup>2</sup> «Ziyokor» . gazetasi. 2009 yil, 12 mart.

balki o`quvchi shaxsiga kompleks ravishda ta'sir etishga yo`naltirilgan bo`lishi lozim. Shu sababli ta'limiy jarayon bilan bir vaqtda tarbiyaviy vazifalarni ham amalga oshirish muhimdir. Bunda o`quvchilarning sonyoqarashi, axloqiy, estetik, etik qarashlar, tasavvurlar, ishonch jamiyatdagi faol faoliyati va shunga muvofiq hatti – harakatlar, usullar munosabatlar ehtiyojlar shaxs fzilatlarini shakllantirish imkonini beradi.

2007 – 2008 o`quv yilda o`quvchi ma'naviyatini yuqori darajaga ko'tarish, samaradorlikka erishish, o`quvchilarni komil inson qilib tarbiyalashda o`qituvchilarga amaliy yordam berishni muntazam yo`lga qo'yish, shuningdek o`qituvchilar va o`quvchilar salomatligi, qiziqishlari, qobiliyati, iqtidori, o`ziga xos olamini aniqlashga doir bilimni oshirish imkoniyatlarini izlash va tadbiiq etish maqsadida umumta'lim va maktabdan tashqari muassasalar o`quvchilarini odam savdosi va uning xavf-xatarlaridan ogoh qilish maqsadida “Odam savdosiga qarshi kurash” mavzularini singdirish yuzasidan barcha maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida tadbirlar o`tkazilgan. Tadbirlarda Navoiy shahar UIM va 3 – BUSM lari yuqori saviyada ish yuritayotgan eng namunali bo`lgan maktabdan tashqari ta'lim muassasalari deb belgilangan.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yangicha yashashni, yangicha fikrlashni, hayotda har bir fuqarodan o`ziga yarasha munosib o`rin, yangi mafkura asosida yangicha manaviyatni talab etmoqda. Nafaqat talab qilayotir, balki bugunda jadal o`zgarib borayotgan iqtisodiy va ijtimoiy sharoitda yangicha o`ylashga va harakat etishga majbur etayotir. Viloyat maktabdan tashqari ta'lim muassasalari pedagog va xodimlari o`z mahorati va manaviyatini yanada yuksaltirishga say - harakatini maromiga yetkazishga harakat qilib kelmoqdalar. Buni ulardagi shijoat va matonatida va amaliy faoliyatida yaqqol ko`rish mumkin.

### **Xulosa**

«Ta'lim to`g`risida»gi yangi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning qabul qilinishi ta'limda tub islohotlarning mazmunini qonunlashtirdi, uning nazariy poydevorini yaratib berdi. Mazkur davlat hujjatlarida ta'lim tizimining barcha bo`g`inlarini islohot qilish jumladan, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini tubdan isloh qilishga ham katta etibor qaratilgan. Prezidentimiz I. A. Karimov takidlaganlaridek, «Shuni unutmaslik kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo`lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog`liq»<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak manaviyat – yengilmas kuch. «Manaviyat», 2008. 61 – bet.

Darhaqiqat, bugunda barkamol avlodni kamlotga yetkazish barcha talim muassasalarining asosiy vazifasi va burchi bo`lib qolmoqda. Barkamol avlod bu - manaviyati yuksak, jismonan sog`lom, kasb – kor, ilmu hunarni mukammal egallagan, ota – bobolari amal qilib kelgan anana - qadriyatlarni ardoqlab, elu Vatanga samimiy xizmat qilishga doim tayyor turadigan; ilmu iqtidor va boshqa ibratli sohalarda ham jahondagi tengdoshlari bilan bahslasha - bo`ylasha oladigan bunyodkor yoshlar - barkamol yoshlardir.

Talim tizimi esa yoshlarimizni kelgusi mustaqil hayotga tayyorlashida muhim o`rin tutadi. Shu o`rinda takidlab o`tish o`rinliki, talim tizimida o`tkazilayotgan islohatlar muvaffaqiyatli amalga oshsagina biz ko`zlagan oliy maqsad, barkamol avlodni, komil insonni yetishtirishimiz mumkin.

Tadqiqotimizda biz talim tizimida islohatlarning borishini maktabdan tashqari talim sohasi misolida tarixan tadqiqot qilishga harakat qildik. Ayniqsa, 1999 yilda maktabdan tashqari talim sohasiga hukumatimiz tomonidan katta etibor qaratilganligi, uning moddiy - texnika bazasini mustahkamlashga qaratilgan vazifalarni bajarish belgilangani, islohatlar zahirida keyingi yillarda bu talim sohasining rivojlanib borishi tarixi magistrlik dissertasiyamizda o`z mazmun – mohiyatini topdi.

Bugunda maktabdan tashqari ta`lim tizimida ham bu islohatlar odimlab, sifat bosqichi sari takomillashib bormoqda. Bu o`zgarishlar avvalo ta`lim muassasasini boshqaruvida, o`quv, ta`lim – tarbiya tizimida yaqqol namoyon bo`lmoqda. Jumladan, bu yo`nalish esa, ta`lim – tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalardan faol foydalanish, o`quvchi - yoshlarga turli kasb sirlarini o`rgatish, qiziqishlariga qarab maktabda olgan bilimlarini rivojlantirish va ularni hayotga tayyorlash imkoniyatini bermoqda.

Tadqiqotimiz shuni tasdiqlamoqdaki, viloyatimizdagi bugungi kunda fidoiy kasb egalari bo`lgan o`qituvchi va tarbiyachilar o`z burchlarini anglagan holda erkin fikrlaydigan, mustaqil dunyoqarashga ega, Ona – Vataniga sadoqatli, yuksak etiqodli yoshlarni tarbiyalash hamda ta`lim berish ishiga katta masuliyat bilan yondashmoqdalar. Ular o`tkazayotgan barcha tadbirlar o`quvchilarni komil inson qilib hayotga tayyorlanishiga qaratilgan. Bu sharafli kasb egalari Vatanimiz, Prezidentimiz oldidagi muqaddas burchlarini yorug` yuz bilan oqlab kelmoqdalar.

Dissertasiya mavzusi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar jarayonida shunga amin bo`ldikki, maktabdan tashqari ta`lim muassasalarining rivojlanishi va takomillashuvi yo`llari haqida aniq fikr mulohazalar shakllandi. Ilmiy izlanishning tadqiqot natijalari bo`yicha quyidagi shakllantirilgan xulosalarga keldik va maktabdan tashqari ta`lim

muassasalarining rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflarni amalga oshirishni tavsiya etamiz :

- Jahon mamlakatlari amaliyoti, tajribalari va ta'lim tizimini moliyalashtirish sohasidagi islohatlari shuni tasdiqlaydiki, moliyaviy resurslarni samarali ishlatishning va ta'lim sifatini yaxshilashning, shuningdek, byudjet mablag`larni taqsimlashda ijtimoiy adolatga e'tibor berishning maqbul yo`llaridan biri har bir tarbiyalanuvchini me'yorlar asosida moliyalashtirishdir. Demak, har maktabdan tashqari tarbiyalanuvchisiga mablag` ajratish usulini qo`llash maqsadga muvofiq bo`ladi;
- maktabdan tashqari muassasalar moddiy texnika bazasini rivojlantirishni
- byudjetdan tashqari mablag`lar topish, homiylar hisobiga kengaytirish mumkin;
- Byudjetdan tashqari daromadlarni shakillantirishda o`quvchilar ota – onalaridan ta'mirlash uchun parda, gullar sotib olish uchun yig`ilgan mablag`larni hisobga olish bo'yicha tartib o`rnatilishi ijobiy natijalar beradi;
- Ota – onalarning xoxish istaklariga muvofiq maktabdan tashqari ta'lim muassasalari huzurida kuni qisqartirilgan (4 soatlik) pullik guruhlar tashkil qilish lozim. Bundan tushgan mablag`larning bir qismi muassasalar ehtiyojiga sarflanishi maqsadga muvofiqdir;
- O`quvchilar ijodiyot markazlarida o`quvchilar yosh xusiyatlarini hisobga olib, an`analarimiz, qadriyatimizni davom ettirish bilan bog`liq turli kasb sirlarini orgatish va yangi yo`nalishlar ochish;
- Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida faoliyat ko`rsatayotgan pedagogik – tarbiyachilarni moddiy jihatdan rag`batlantirish, ta'lim – tarbiya faoliyatlariga har tomonlama ko`maklashish mutasaddi tashkilotlarning har doim diqqat e'tiborida bo`lishi lozim.

Bugungi yosh avlod ertangi barkamol shaxs, malakali mutaxassisdir. Shu sababli bo`lajak mutaxassislarning bilim va mahoratga ega bo`lishlari uchun zarur bo`lgan pedagogik shart – sharoitlarni yaratish, e`tibor qaratish, vazifaga ma`suliyat bilan yondoshish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa Dastur talablariga muvofiq barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazishga qaratilgan ijtimoiy harakat muvaffaqiyatini ta`minlashga xizmat qiladi deb, o`ylaymiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

### **1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari va risolalari.**

1. Karimov I. A. O`zbekiston kelajagi buyuk davlat. T. "O`zbekiston".1992.
2. Karimov I.A. O`zbekistonning siyosiy –ijtimoiy va iqtisodiy tamoyillari. T., "O`zbekiston, 1995.
3. Karimov I. A. Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori.T. "Sharq". 1997.
4. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T. "Sharq". 1998.
5. Karimov I. A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni - xalq, millatni, millat qilishga xizmat etsin. T. "O`zbekiston". 1998.
6. Karimov I. A. Bosh maqsad: Vatan taraqqiyoti va xalq farovonligi. (I. A. Karimovning Navoiy viloyati saylovchilari vakillari bilan uchrashuvidagi nutqi). "Do`stlik bayrog`i" gazetasi. 2007 yil 30 noyabr.
7. Karimov I. A. Yuksak manaviyat - yengilmas kuch. T. "Manaviyat", 2008.

### **2.O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari**

1. O`zbekiston Respublikasining Prezidentining 2007 yil 26 fevraldagi PF -3857 sonli "Xalq ta'limi muassasalarining moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish to`g`risida" gi farmoni.
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 8 iyul "Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy - texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo`yicha 2009-2014 yillarga mo`ljallangan davlat dasturi to`g`risida"gi PQ-910 sonli qarori

### **3.O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmonlari.**

1. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 fevralda qabul qilingan «Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to`g`risida" gi farmoni.
2. Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 30 martdagi 63-sonli "Xalq ta'limi muassasalarining moliyaviy iqtisodiy ta'minotini takomillashtirish chora tadbirlarini amalga oshirish to`g`risida"gi qarori.
3. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 25 oktabr № 225 qarori bilan "O`zbekiston Respublikasida nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi to`g`risida Nizom"
4. Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 25 oktabr № 225 qarori bilan "Qisqa muddatli (4 soat) guruhlarini faoliyatini tartibga solish uchun yo`naltirilgan Nizom"

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 24 iyunda № 13 - sonli «Davlatga qarashli bo'lmagan maktabgacha bolalar muassasalari tarmog'ini tashkil etish va rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risida” gi qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 15 aprel № 61 sonli «Davlatga qarashli bo'lmagan maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish to'g'risida”gi farmoni.

#### **4. Arxiv hujjatlari**

1. Navoiy viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi joriy arxivi.
2. Navoiy shahar Xalq ta'limi bo'limi joriy arxivi.

#### **5. Maxsus adabiyotlar va manbalar ro'yxati**

1. Azarov YU. P. Bolalarni sevish san'ati. T. “O`qituvchi” 1992.
2. Бабанский Ю.К. Методы обучения в современных общеобразовательных школах Т., “Укитувчи”.,1990.
3. Bozorov E. Musurmonova O. O`qituvchining ijodkorligi – davr talabi. T. O`qituvchi. 1990.
4. Boshlang`ich sinflarda ta'limni optimallashtirish masalalari (Ilmiy asarlar to`plami) T. 1998 .
5. Ergashev. Q. O'zbekiston xalq ta'limining rivojlanish tarixi.. T. “O`qituvchi” 1998.
6. Ergashev F. Obidov D. Milliy ta'lim tarixidan T. “Akademiya”, 1998.
7. Ergashev Q. O'zbekiston xalq ta'limining rivojlanish tarixi. Maxsus kurs T. O`qituvchi. 1998.
8. Istiqlol va ta'lim. Xalq ta'limi mustaqillik yillarida. 1991 – 2001. T. “Ma'rifat – madadkor”. 2001.
9. Mustaqillik odimlari, islohotdagi tub burilishlar va natijalar. Navoiy. 2001.
10. “Marifat” gazetasi. 2008- yil, 23- aprel.
11. Mahkamov U. Shaxsni ma'naviy shakllantirish. T. “O'zbekiston”. 1988.
12. Mahmudov B. Qashqadaryo xalq ta'limining taraqqiyot yo`li. Qarshi, Nasaf, 1999 .
13. Mustaqillik yillarida xalq ta'limi. “Andijon”. 1997.
14. Mustaqillik odimlari, islohotdagi tub burilishlar va natijalar. Navoiy. 2001.
15. Mirqosimov M. Maktabni boshqarishning nazariy va pedagogik asoslari. “O`quv qo`llanma. T. “O`qituvchi”. 1995.
16. Milliy maktab poydevorini yaratish yo`lida. T. 1991.
17. Ochil Safo. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari. T. «O`qituvchi”. 1997.

18. Qodirov B. Ta'lim to'g'risidagi islohatlar maqsad va yo'nalishlari. T. "O'zbekiston". 1999 .
19. Qurbonov SH. Seytxalilov E. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi: pedagogik ilmiy tadqiqot muammolari va yo'nalishlari. T. "Fan", 1999.
20. Qodirov B. "Ta'lim tizimidagi islohatlar: maqsad va yo'nalishlari. T. "O'zbekiston". 1999.
21. Roziqov. O. Og'ayev S., Mahmudov. M Azizov. B. Ta'lim texnologiyasi. T. «O'qituvchi". 1999
22. Sotliqov B. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ta'lim – tarbiya mazmunini yangilashning dolzarb vazifalari. "Urgench". 1995.
23. Саъдиев А. Преподавания истории народов Узбекистана. Т., "O'qituvchi" , 1993.
24. Saidaxmedov N. S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. T., 2003.
25. To'ychiyev M. B. «O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus maorifini rivojlantirish uchun ajratilgan byudjet mablag'laridan foydalanishning samaradorligini oshirish yo'llari. T. Avtoreferat. 2004. 9-bet.
26. Ta'lim menejmenti. 2007 yil, № 1- son, 5- bet.
27. To'raxonova R. O. Olti yoshli bolalarning psixologik xususiyatlari. T., "O'qituvchi" 1990.
28. O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'lida. Mualliflar jamoasi. T. "O'zbekiston". 1994.
29. O'quvchilarni tarbiyalashdi oila, mahalla, maktab hamkorligi: Maxsus kurs. T. O'qituvchi. 1998.
30. O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish: (Umumta'lim maktab, direktori, ma'naviy – ma'rifiy tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, sinf rahbari va tarbiyachi uchun qo'llanma). T. "Sharq", 2000 y.
31. Sharipov F. Sovet O'zbekistonda xalq ta'limi sistemasining ravnaqi. T. «O'zbekiston". 1977.
32. Чориев А. Проблемо` народного образования педагогичес-ких кадров Узбекистана. Т., Фан, 1997.
33. Xudoyberganova O'. Iqtidorli bolalarga ta'lim berishning o'ziga xos jihatlari. "Uzliksiz ta'lim". T. 2006. № 2. 63 – 65 – betlar
34. Oripova N. Milliy qadriyatlar va vatanga e'tiqod. "Xalq ta'limi". T. 2002. № 5. 36 – bet
35. «Do'stlik bayrog'i» gazetasi, 2010 yil, 25 – mart.

36. “XX asr” gazetasi, 2010 yil 1 aprel №13- son
37. Ta’lim Menejmenti. Jurnal . 2007 yil., № 1 - son, 5 – bet.
38. Xalq ta’limi . Jurnal. 2007 yil, № 1 – son. 133 – bet.
39. «Ziyokor» Gazeta. 2007 yil, 23 - mart.